VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 189 (1515), 2025-yil 12-sentabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

TOSHKENT VILOYATIDA ISLOHOTLAR VA INVESTITSIYAVIY LOYIHALAR NATIJADORLIGI TA’MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-sentabr kuni Toshkent viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Go‘zal tabiatli va salohiyati yuqori bu viloyat iqtisodiyoti bugun izchil rivojlanib bormoqda. Keyingi 8 yilda 10 milliard dollar hududiy, 8 milliard dollar tarmoq investitsiyalari kiritilgan, 10 mingga yaqin sanoat, savdo va servis korxonalari ishga tushgan.

Oxirgi uch yilda yillik aylanmasi 10 milliard so‘mdan ko‘p bo‘lgan korxonalar soni 1,8 barobar oshib, 1,7 mingga yetgan. Aylanmasi 100 milliard so‘mdan yuqori korxonalar esa 137 tadan 193 taga ko‘paygan. Natijada oldingi yillarda yillik o‘rtacha eksport 1 milliard dollarga ham yetmagan bo‘lsa, shu yilning 8 oyida bu raqamdan oshgan.

Viloyatda xitoylik investorlar tomonidan 2,1 milliard dollarlik yirik sanoat parklari tashkil etilmoqda. Shuningdek, viloyatni 2025-2027-yillarda jadal rivojlantirish bo‘yicha Prezident qarorlari qabul qilinib, ular ijrosi uchun 40 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirilgan. Bularning bari hududlarda ishsizlikni pasaytirib, kambag‘allik darajasini qisqartirish imkonini bermoqda. Yil yakuniga qadar viloyatda ishsizlik va kambag‘allik darajasini 4,5 foizga tushirishning aniq hisob-kitobi qilingan.

Bunday natijalarni oshirish maqsadida davlatimiz rahbarining tashabbusiga muvofiq, Toshkent viloyatida ham “Islohotlar shtabi” tuzildi. Yig‘ilishda shtab tomonidan tayyorlangan reja va loyihalar taqdimot qilindi.

Prezidentimiz tomonidan mazkur loyihalarni bekam-ko‘st amalga oshirishga ko‘maklashish, ayrim masalalarni zudlik bilan yechish bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

Jumladan, Nurafshon, Olmaliq va Chirchiq shaharlarida xorijiy investitsiya ishtirokida sanoat korxonalarini tashkil etish uchun ikkita nimstansiya qurish ko‘zda tutilmoqda.

Bekobod shahrida import o‘rnini bosuvchi avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish, Oqqo‘rg‘on tumanida oziq-ovqat va to‘qimachilik korxonalarini ochish, Ohangaron, Angren va O‘rta Chirchiq hududidan oqib o‘tuvchi Qorasuv kanali bo‘yida turizm va savdo maskanlarini tashkil etish imkoniyati bor.

Umuman, viloyatda 2 milliard 500 million dollarlik investitsiyaviy loyihalar ishlab chiqilgan. Ularning natijasida 11 mingdan ziyod aholi bandligi ta’minlanadi, 434 million dollarlik eksport quvvati yaratiladi.

Prezidentimiz loyihalar bilan atroflicha tanishib, qo‘shimcha imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

— Toshkent viloyati sanoatda ham, qishloq xo‘jaligida ham eng katta salohiyatga ega hudud. Asosiysi, viloyat yurtimizdagi eng yirik iste’mol va xizmatlar bozorini, ya’ni poytaxtimizni har tomondan o‘rab turadi. Bu ham juda katta imkoniyat. Uni to‘liq ishga solib, investitsiya, eksport va ish o‘rni ko‘rsatkichlarini karrasiga oshirish mumkin, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda Toshkent shahri va tumanlari hokimlari ham qatnashdi. Toshkent viloyatidagi ayrim bo‘sh yerlar “Toshkent invest” kompaniyasi va shaharning sanoat zonalari direksiyasiga ajratilib, ularga ekologiyaga zarar keltirayotgan korxonalar ko‘chirilishi qayd etildi.

Toshkent viloyatining barcha hududlarini poytaxt bilan tezkor elektr poyezdlar orqali bog‘lash vazifasi belgilandi. Bu orqali u yerlarda ham yangi uy-joylar, infratuzilma va xizmatlarga talab oshadi, odamlar poytaxtga qatnab ishlashi mumkin bo‘ladi.

Viloyatdagi 263 ta mahalla biror mahsulot yetishtirish, sanoat yoki xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashmagan. Shu bois, ularda bog‘dorchilik, limon, uzum, malina, brokkoli va ko‘chat yetishtirishni rivojlantirish mo‘ljallanmoqda. Bu mahallalarga “Agrostar” kompaniyasini biriktirib, urug‘, ko‘chat va kafolatli xarid borasida odamlarga yordamlashish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Toshkent viloyati yer va suvga juda boy. Bundan samarali foydalanib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytirish bilan birga ularni qayta ishlab, eksportini oshirish vazifasi qo‘yildi.

Umuman, barcha imkoniyatlarni yuzaga chiqarib, mahallalarni ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zA

AHOLI VA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISH TADBIRLARI TIZIMLI VA SIFATLI AMALGA OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish ishlarini samarali tashkil etishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatni rivojlantirish istiqbollarini belgilashda aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, yashash darajasi va farovonligi, qishloq xo‘jaligi holatini aniqlash juda muhim. Bunda ro‘yxatga olish dolzarb ahamiyatga ega.

Yurtimizda umummilliy ro‘yxatga olish oxirgi marta 1989-yilda o‘tkazilgan. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, aholini har 10 yilda, qishloq xo‘jaligini esa har 5 yilda kamida bir marta ro‘yxatdan o‘tkazish belgilangan.

Shu bois, 2021-yilda aholini, 2022-yilda esa qishloq xo‘jaligini sinov tariqasida ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazildi. Lekin to‘laqonli ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun zarur omillar va xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish ma’lum vaqtni taqozo etishi bois, bu tadbir keyinga qoldirilgan edi.

Taqdimotda xalqaro tajribadan kelib chiqib hamda Jahon banki, UNFPA va FAO tashkilotlari ishtirokida ishlab chiqilgan aholi va qishloq xo‘jaligini bir vaqtda ro‘yxatdan o‘tkazish taklifi ko‘rib chiqildi.

Unga ko‘ra, O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tkazish tadbirlari 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar o‘tkaziladi. Uning dastlabki 17 kuni internet orqali, keyingi bir oy mobaynida esa “mahalla yettiligi” ishtirokida uyma-uy yurib amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Mazkur usul orqali xarajatlar sezilarli qisqarib, 1,3 trillion so‘m mablag‘ tejaladi. Shuningdek, ro‘yxatga olish jarayonlari oddiy va shaffof tarzda tashkil etiladi. Savollarning soni avval rejalashtirilgan 328 tadan 71 taga qisqartirildi.

Ro‘yxatga olish natijasida Yevropa statistiklari konferensiyasining 2020-yildagi tavsiyalari asosida 38 million aholining tarkibi va migratsiyasi, oilaviy holati, faoliyat turi, daromad manbalari to‘g‘risida yagona ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Mamlakatimizdagi qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish holati, chorva mollari va parrandalar soni aniqlanadi. Bu orqali qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilayotgan yillik 25,6 trillion so‘m, jumladan, 2,2 trillion so‘m byudjet mablag‘larining samaradorligi, sohadagi xizmatlar hajmi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun zarur ma’lumotlar to‘plami yaratiladi.

Ro‘yxatga olish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun “mahalla yettiligi” maxsus o‘quv dasturi asosida tayyorlanadi va rag‘batlantiriladi. Buning uchun Jahon banki ko‘magida amalga oshirilayotgan statistika tizimini mustahkamlash loyihasining mablag‘lari yo‘naltiriladi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ibot ishlari yo‘lga qo‘yiladi. Maxsus ko‘rsatuv va videoroliklar namoyish etilib, fuqarolarning xabardorligi oshiriladi.

Umuman, mazkur tadbirlar aholi va qishloq xo‘jaligining real ko‘rsatkichlarini aniq belgilash, davlat dasturlarini maqsadli hamda samarali amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni ma’qullab, aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini tizimli va sifatli amalga oshirish bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatmalar berdi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda islohotlar samaradorligini oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or tajribalar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish borasidagi munosib hissasi, o‘quvchi yoshlarga zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni o‘rgatish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lidagi katta xizmatlari, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki, shuningdek, yurtimizda ta’limga oid investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” faxriy unvoni bilan

Raximov Xamidjon Mamajonovich — Oltiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori, Farg‘ona viloyati

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni bilan

Boyqobilova Lobar Toshtemirovna — Oqdaryo tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Egamberdiyev Atabek Ro‘zimovich — Hazorasp tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning fizika fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Abdullayev Maxmudjon Muxamedovich — Toshkent davlat texnika universitetining mexatronika va robototexnika kafedrasi professori

Orazimbetova Guldarixa Kdirbayevna — Qorao‘zak tumanidagi 32-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Suvanov Omon — Guliston davlat universitetining pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Xushmatov Raxmatullo Rabbimovich — Samarqand shahridagi alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 61-maktab-internatining tasviriy san’at va chizmachilik fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Shukurov Maxmanazar Karimovich — Yakkabog‘ tumanidagi 37-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Tadjibayeva Ma’muraxon Ashuraliyevna — Toshkent shahridagi Prezident maktabi ijrochi direktori

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Abdullayev Shavkat Vaxidovich — Namangan davlat universitetining kimyo kafedrasi professori, Namangan viloyati

Axmedova Muattar Abduvaxitovna — Qibray tumanidagi “Imkon” ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti defektologi, Toshkent viloyati

Baltabayev Alimkul Egamberdiyevich — Sayxunobod tumanidagi 16-umumiy o‘rta ta’lim maktabining musiqa fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Bo‘tayev Qaxramon Nig‘matovich — R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining akademik xonandalik bo‘limi bosh o‘qituvchisi

Ziyayeva Moxidil Baxtiyorovna — Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Kazimova Roxila Rozikovna — Tayloq tumanidagi 41-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Samarqand viloyati

Karimova Mavludaxon Sharobutdinovna — Oltinko‘l tumanidagi “Al Impex garant” nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, Andijon viloyati

Davomi 2-betda

YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING YAGONA KONSEPSIYASI

PREZIDENTIMIZ RAISLIGIDA MAKTABGACHA TA’LIM VA MAKTAB TA’LIMI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR IJROSI HAMDA KELGUSIDAGI USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMASI YUZASIDAN O‘TKAZILGAN VIDEOSELEKTOR YIG‘ILISHIDAN KEYINGI MULOHAZALAR

Sharh

Bugungi globallashuv va bilim iqtisodiyoti davrida inson kapitali davlat taraqqiyotining eng muhim mezoniga aylangan. Yangi texnologiyalar, tezkor axborot oqimlari, sun’iy intellekt kabi jarayonlar ishlab chiqarish va iqtisodiyot qatorida ta’lim tizimining ham tubdan yangilanishini talab etmoqda. Shunday sharoitda har qanday mamlakatning ertangi kuni bugun qanday ta’lim konsepsiyasini tanlashi, qaysi qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishi bilan belgilanadi. Mamlakatimizda ham ta’limning barcha bo‘g‘inlari izchil rivojlantirilyapti. Yangi ta’lim maskanlari qurilmoqda va zamonaviy jihozlanib, yoshlarning bilim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Biroq bu uzluksiz jarayon. Iqtidorli bolalarga ixtisoslashgan bilim berish, yoshlarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish doimiy e’tiborni talab etadi. Videoselektor kun tartibidan o‘rin olgan masalalar yurtimizda bu jarayonning davomiyligini, tizimli yondashuv asosida kechayotganini ko‘rsatdi.

Jamiyatda o‘z o‘rnini topadigan, mustaqil fikrlaydigan, kasbiy ko‘nikmalarga ega va eng muhimi, yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga bugungi kunning asosiy vazifasi sifatida qaralar ekan, ta’lim sohasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilanishi bejiz emasligi ko‘rinadi. Negaki ta’lim nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashdek ulkan mas’uliyatni ham zimmasiga oladi. Shu bois, ma’naviy-tarbiyaviy ishlar ta’limning ajralmas qismidir. Ammo hozirgi kungacha bu borada yagona yondashuv bo‘lmaganini tan olish kerak.

Bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun muhim tashabbus ilgari surilmoqda. Ya’ni bolalar bog‘chasidan tortib, oliy ta’limgacha qamrab oladigan yagona milliy g‘oya konsepsiyasi ishlab chiqildi. Endi turli idoralar o‘zicha “tadbir” o‘tkazish bilan ovora bo‘lmaydi. Bir butun konsepsiya asosida ishlangan namunaviy rejalar ta’lim muassasalariga yo‘llanadi, ularning ijrosi muntazam nazorat qilinadi.

Eng muhimi, bu tizim yoshlarni ortiqcha tadbirlarga jalb etmaydi. Aksincha, har bir tadbir mazmunli, saviyali va yoshlarning qiziqishiga mos bo‘ladi. Masalan, kimdir kitobxonlikka, kimdir san’atga, yana kimdir sportga qiziqsa, milliy g‘oya konsepsiyasi ularning har bir yo‘nalishdagi iste’dodini qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi. Bu orqali yoshlarning bo‘sh vaqti ham mazmunli tashkil etiladi, ta’lim-tarbiya jarayoni esa yagona maqsad — barkamol inson tarbiyasiga yo‘naltiriladi.

Eng ko‘p yo‘qotishlarga olib keluvchi maydon

Bo‘sh vaqt — ta’lim tizimida eng ko‘p yo‘qotishlarga olib keladigan maydon. Bola kim bo‘lib voyaga yetishida darsdan keyingi muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sabab markazdan tortib, maktabgacha bo‘lgan boshqaruv zanjiri bitta maqsadga xizmat qiladigan, mas’uliyat va vazifalari aniq yagona vertikal tizim zarur edi.

“Barkamol avlod” bolalar maktabi, Respublika o‘quvchi yoshlar markazi hamda “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati negizida tashkil etilayotgan “Kelajak” markazlari ayni shu g‘oyaning tayanchi bo‘lib xizmat qilishi ko‘zda tutilmoqda.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

Kasimov Fayzullo Muxamadovich — Buxoro davlat pedagogika institutining boshlang‘ich ta’lim kafedrasi professori, Buxoro viloyati

Pirmatova Rano Ninniyevna — Sherobod tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Umaraliyeva Mamuraxon Tashxodjayevna — Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyining biologiya fani o‘qituvchisi

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abdushukurov Anvar Kabirovich — O‘zbekiston Milliy universitetining organik va neft-gaz kimyosi kafedrasi professori

Azarenko Igor Timofeyevich — V.A.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining estrada ijrochiligi bo‘limi o‘qituvchisi

Azimov Raxim Azizboyevich — Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining Xavfsizlik va korrupsiyaga qarshi kurash qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari

Volfgang Anton Herrmann — “Yangi O‘zbekiston” universitetining faxriy prezidenti

Drujinina Yelena Sergeyevna — Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi murabbiysi

Ibrohim Said Abdulla Ali Alhajri — Birlashgan Arab Amirliklarining Xalifa universiteti prezidenti

Ismatillayev Xabibulla — Oltinsoy tumanidagi 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Kadirova Adiba Raxmonovna — Shahrisabz shahridagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

King Stefen Richard — “Cambridge University Press & Assessment” tashkilotining Yevropa, Markaziy Osiyo va Amerika bo‘yicha bosh koordinatori

Qalbayeva Naubahar Perdebayevna — Nukus tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Marsden Abbey Nikole — Andijon shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Mirjalilova Gulbaxor Miraxmonovna — Chust tumanidagi 52-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Mirzakulov Batirjon Kazakbayevich — Mirzacho‘l tumani hokimi, Jizzax viloyati

Rassell Heyli Daniel — Mirobod tumanidagi 175-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Sayfutdinov Anvar Nazarovich — Mirobod tumani hokimi, Toshkent shahri

Saparova Guldar Jusupaliyevna — Bo‘ka tumanidagi 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabining nemis tili fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Sultanova Shaxida Yuldashevna — Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetining akademik litseyi ijrochi direktori

Uvarova Vera Yuryevna — Toshkent shahridagi “Novda Edutainment” mas’uliyati cheklangan jamiyatining gumanitar fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish bo‘limi boshlig‘i

Usmanova Nodira Soxibovna — Qarshi shahridagi 2-ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti logopedi, Qashqadaryo viloyati

Xasanov Baxtiyor Temirovich — Oqdaryo tumanidagi 47-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Xafizova Sayyora Baxtiyarovna — Navbahor tumanidagi 1-maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining o‘rinbosari, Navoiy viloyati

Shamusarov Sharustam Giyazovich — Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining arabshunoslik oliy maktabi professori

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Abduraxmanova Surayyo Mirzamaxmutovna — Uchqo‘rg‘on tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Azimova Nargiza Fagimovna — Paxtakor tumani sport maktabining dzyudo bo‘yicha murabbiysi, Jizzax viloyati

Artikov Urol Yusupovich — Jarqo‘rg‘on tumani sport maktabining dzyudo bo‘yicha murabbiysi, Surxondaryo viloyati

Zakirova Dilnoza Sharifovna — Buxoro turizm va madaniy meros texnikumining maxsus fan o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Kamolova Shohzoda Fayzullayevna — Navoiy shahridagi “Barkamol avlod” bolalar maktabining robototexnika to‘garagi rahbari, Navoiy viloyati

Musayev Saminjon Aliyevich — Uchko‘prik tumanidagi 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Ruzikulov Ravshan Raxmatulloyevich — Sport yakkakurashlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining yunon-rum kurashi bo‘yicha katta murabbiysi

Soliyev Anvarxuja Maqsudovich — Yangiyo‘l tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Choriyev Faxriddin Urolovich — Qamashi tumanidagi 2-sport maktabi direktorining futbolni rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosari, Qashqadaryo viloyati

“Shuhrat” medali bilan

Abdinazarov Xasanboy Xoliqnazarovich — Dang‘ara tumanidagi “D.I.Mendeleyev” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari, Farg‘ona viloyati

Abdullayeva Fotima Baxromovna — Jizzax shahridagi “Jizzakh International School” xususiy maktabi direktori, Jizzax viloyati

Amanov Baxtiyar Xushbakovich — Chirchiq davlat pedagogika universitetining genetika va evolyutsion biologiya kafedrasi mudiri, Toshkent viloyati

Amanova Zulxumor Mutalovna — Angren shahridagi ixtisoslashtirilgan maktabning informatika fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Axmedova Hafiza Hakimovna — Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Axunova Tamara Uktamovna — Buloqboshi tumanidagi 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Berdiyorova Xurshida Jambulovna — Koson tumanidagi 95-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Bobanazarov Sherbay Abdiraxmanovich — Muzrabot tumanidagi 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabining informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Boboyev Maqsud Mahmudovich — Jondor tumanidagi 46-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Boltayeva Lola Abduvohidovna — Yunusobod tumanidagi 273-umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Djabbarov Ruzmat Allanazarovich — Xiva shahridagi 121-ko‘zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Jalelov Ilxam Klishbayevich — Qonliko‘l tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Jalilov Behzod Murotovich — Toshkent shahridagi “Target international school” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari

Janiqulov Ma’ruf Maxsud o‘g‘li — Forish tumanidagi 47-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Jurayeva Feruza Baxodirovna — Vobkent tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining nemis tili fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Zanjirova Xurshida Maxmudovna — Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning informatika fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Zikirova Sanam Kilichevna — Qarshi shahridagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan bolalar uchun internat uyi enagasi, Qashqadaryo viloyati

Kamalitdinov Jobir Nuritdinovich — Davlatobod tumanidagi “Aisha Home Textile” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Namangan viloyati

Karimov Eldor Erkinovich — G‘uzor tumanidagi 1-politexnikumi direktori, Qashqadaryo viloyati

Mamajonova Zoxidaxon Tursunovna — Norin tumanidagi 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Mirzayeva Raxima — Farg‘ona shahridagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Mirzaxmedov Ulugbek Uyirbekovich — Bo‘stonliq tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining musiqa fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Nasirova Shaira Narmuradovna — Navoiy davlat universitetining raqamli texnologiyalar kafedrasi professori, Navoiy viloyati

Norqo‘chqarova Salima Normuminovna — Qumqo‘rg‘on tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Orazbayev Jurabek Ibadullayevich — Ellikqal’a tumanidagi “Sarabiy” o‘quv markazi rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Po‘latov Rashidjon Raximovich — Beshariq tumanidagi 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabining texnologiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Saydaxmatova Xalimaxon Ismoilovna — Quva tumanidagi 1-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Farg‘ona viloyati

Salayev San’atbek Kamilovich — Xorazm viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

Salimov Xaytboy Mirzayevich — Marhamat tumanidagi 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Salomov Umid Firdavsiyevich — Samarqand shahridagi “Anvar Zamon Nur” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi, Samarqand viloyati

Samadova Gulbahor Saidmuradovna — Jizzax shahridagi 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Samiyeva Nafosat Kamolovna — Kitob tumanidagi 3-oilaviy bolalar uyi rahbari, Qashqadaryo viloyati

Sarsenbayeva Uldaulet Ansatbay qizi — Bo‘zatov tumanidagi 20-bolalar musiqa va san’at maktabining baxshichilik sinfi o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Sultanova Gulnora Alimbayevna — Urganch shahridagi 18-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Xorazm viloyati

Sultonov Jaxongir Xasanjon o‘g‘li — O‘zbekiston tumanidagi “Edu fly” o‘quv markazi rahbari, Farg‘ona viloyati

Sultonov Sulton Istamovich — Buxoro shahridagi 24-ko‘zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Temirov Anvar G‘ayrat o‘g‘li — Samarqand shahridagi “Yuksalish quruvchi” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Samarqand viloyati

Tillayev Alisher Xasanovich — “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universitetining “International House-Tashkent” akademik litseyi direktori

Tishlikova Dilnora Maxmudovna — Guliston shahridagi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Turg‘unov Bekzod Mirzamaxmud o‘g‘li — Chortoq tumanidagi “Stanford LC” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari, Namangan viloyati

Umarova Ozodaxon Israilovna — Jalaquduq tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

O‘tanov Shuhrat Qo‘shmurodovich — G‘allaorol tumanidagi 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Xaknazarov Farxad Mamaraximovich — Guliston tumanidagi 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabining informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Xamidov Xayrullo Ismoilovich — Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining metallurgiya kafedrasi professori, Navoiy viloyati

Xamidova Gulnoza Baxtiyorovna — Zomin tumanidagi “Iqtidorlilar” xususiy maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Xo‘janiyozova Umida Qalandarovna — Urganch tumanidagi 45-umumiy o‘rta ta’lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Shin Yelena Petrovna — Bekobod shahridagi 11-ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti defektologi, Toshkent viloyati

Shoberdiyev Omon Abdixoliqovich — Qumqo‘rg‘on tumanidagi 1-politexnikumning maxsus fan o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Shodmonova Marhabo O‘ktamovna — Qiziltepa tumanidagi 1-politexnikumning maxsus fan o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Egamberdiyev Sanjar Usanbayevich — Shirin energetika texnikumining ishlab chiqarish ta’limi ustasi, Sirdaryo viloyati

Elmirzayev Parvoz Pardayevich — Kitob tumanidagi 50-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Ergashev Sherzod Shodibek o‘g‘li — Jizzax shahridagi Prezident maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Yavidov Bahram Yangibayevich — Nukus davlat pedagogika institutining fizika o‘qitish metodikasi kafedrasi professori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 11-sentabr

Hududlar qiyofasi

ISLOHOTLAR MAQSADI – XALQNI ROZI QILISH

OLIS QORAQALPOG‘ISTON SHAHARCHASIDAGI YANGILANISHLARDAN AHOLI MAMNUN

— Qush uchsa qanoti, odam yursa, oyog‘i kuyadigan chekka shaharchamizda xalqimiz yillar davomida orzu qilgan ishlar bugun bajarilmoqda. Ushbu manzil tuman markazidan 350 kilometr uzoqda joylashgan. Yo‘llarning abgorligi nafaqat bu yerda yashovchilarning, balki xalqaro yo‘ldan o‘tuvchilarning ham asosiy bosh og‘rig‘i edi. Sababi yo‘l yomonligi tufayli avtomashinalar tez-tez buzilib, balloni yorilib, qolib ketardi, — deydi Qo‘ng‘irot tumanidagi “Qoraqalpog‘iston” shaharcha fuqarolar yig‘ini raisi Qutli Hoshimbetova. — Endi tuman markazidan manzilimizgacha 3 soatda yetadigan bo‘ldik. Shunday katta g‘amxo‘rliklar uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildiramiz.

Bugun mamlakatda kechayotgan keng islohotlar haqida gap ketganda nafaqat poytaxt yoki yirik shaharlarni, balki eng chekka hududlarni ham tilga olamiz. Chunki yangi O‘zbekistondagi islohotlar nafasi har bir oila, har bir mahalla, hatto eng olis qishloqqacha yetib borishi kerak. Nukus shahridan 400 kilometr olisda joylashgan Qoraqalpog‘iston shaharchasidagi o‘zgarishlar fikrimizni tasdiqlaydi.

Hududdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish, shaharcha aholisi bilan suhbatlashish uchun uzoq masofa bosib, ravon, tekis yo‘l orqali Qo‘ng‘irot tumanidagi “Qoraqalpog‘iston” shaharcha fuqarolar yig‘iniga yetib bordik.

— Shaharchamiz 2018-yili “Obod qishloq” dasturiga kiritilib, katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ko‘p yillardan buyon foydalanilmay kelayotgan klub binosi qayta ta’mirlanib, 165 o‘rinli muhtasham madaniyat saroyiga aylantirildi. Hududdagi 26- va 56-maktablarda tubdan ta’mirlash ishlari bajarildi. 23- va 29-bolalar bog‘chasi qayta ta’mirlandi. “Obod qishloq” dasturi doirasida tikuvchilik sexi ishga tushirilib, 60 xotin-qiz ishli bo‘ldi, — deydi Qutli Hoshimbetova. — Bundan tashqari, yoshlar uchun ajoyib sport zali barpo etildi. 67-oilaviy poliklinika zamonaviy tibbiy uskunalar bilan to‘liq ta’minlandi. Hudud aholisi uchun kichik dehqon bozori va temir yo‘l vokzali ham qayta ta’mirlandi. Shaharchamiz mamlakatimizdagi eng obod manzillardan biri bo‘ldi deb o‘ylayman. Sababi aholining ko‘pi ish bilan band. Mahallamiz ichimlik suv, tabiiy gaz, elektr energiyasi bilan to‘liq ta’minlangan.

Yaqin-yaqingacha bu hududda yo‘l yurish hayotning eng katta sinovlaridan biri bo‘lib kelgan. Hatto eng yaqin Qo‘ng‘irot tumani markaziga yetib borish uchun 6-7 soat kerak edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan qurilgan “A-380 “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” xalqaro yo‘li masofani ikki soatgacha qisqartirdi. Bu yo‘l odamlar uzog‘ini yaqin qilish bilan birga hudud rivojiga ham keng imkoniyat ochdi.

— Shaharchamizda bank filiali, aloqa bo‘limi bor. Oshxonalar, hammom, do‘konlar xalqimiz xizmatida. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bor fuqarolarga muntazam yordam ko‘rsatilmoqda, — deydi hududdagi ijtimoiy xodim Dilnoz Bazarbayeva. — Shaharchamizda nogironligi bo‘lgan 62 shaxs ro‘yxatga olingan.

Hududdagi yangilanishlar bilan tanishish jarayonida odamlar bilan suhbatlashdik.

— Hammasi bir qop undan boshlandi. Ishsizlik tufayli ro‘zg‘or tebratish uchun qarzga bir qop un sotib olib, tandirda non yopdik. Ilk tadbirkorligimizni shunday boshlaganmiz. Asta-sekin faoliyatimizni kengaytirdik, — deydi tadbirkor Aliya Jekebayeva. — 2019-yili ovqatlanish shoxobchasini ochdik. Buning uchun bankdan kredit oldik.

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlikka yaratilgan imkoniyatlar, soliq va kredit imtiyozlari, mahsulotni bozorga olib chiqishga doir qulayliklar bugun Qoraqalpog‘istonning eng chekka qishloqlarigacha yetib borgan. Bu esa oddiy odamlar hayotida katta o‘zgarishlar yasamoqda. Juldiz Izbasarova ushbu imkoniyatlardan foydalanayotgan faol tadbirkorlardan. Qandolatchilik sexi kichik bo‘lishi mumkin, lekin rejalari, maqsadi ulkan. Bugun uning kichik korxonasida 10 turdagi qandolat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Hatto buyurtma asosida qo‘shni Qozog‘istonga yetkazib berilyapti.

— Aslida, bu hunarni bundan 7-8 yil avval boshlaganman. Uy sharoitida pishiriqlar tayyorlardim, — deydi Juldiz Izbasarova. — Mana tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tib, qandolatchilik sexini ochdim. Hududimiz tobora rivojlanyapti. Ovulimizda o‘zgarishlar juda ko‘p. Sharoitimiz kun sayin yaxshilanib bormoqda. Buni hudud aholisining kayfiyatidan ham bilish mumkin.

Shaharcha xotin-qizlari mehnatdan qochmaydigan, imkoniyatni qo‘ldan boy bermaydiganlar toifasidan. Ular uchun hayot faqat kutish emas, balki harakat, intilish va o‘z ustida ishlash demakdir.

Tadbirkor ayol Suluvxan Berdanova bo‘sh turgan imoratni ijaraga olib, tikuv sexi ochdi. Shaharchadagi ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta’minladi. Shu bilan birga, tikuvchilikni o‘rgatish uchun o‘quv kurslarini ham tashkil etgan.

— Ushbu tikuv sexida 2 yildan buyon ishlab kelyapman. Oldin uyda ishsiz, uch bolamning tarbiyasi bilan band edim, — deydi Muhabbat Jumabayeva. — Tadbirkor Suluvxan Berdanova meni shogirdlikka olib, hunar o‘rgatdi. Keyin esa ishga qabul qildi. Bugun men nafaqat kasbli, balki ishli ham bo‘ldim. Hayotga qarashlarim o‘zgardi.

Batirbay Tengelov asli nukuslik. Bugun uyidan 400 kilometr uzoqda — Qoraqalpog‘iston shaharchasidagi maktabda ingliz tilidan saboq bermoqda. Shu bilan birga, chet tilini chuqur o‘rganuvchilar uchun repetitorlik qiladi. Turmush o‘rtog‘i Jansuluv Aqsultanova ham shu muassasada matematikadan dars beradi.

Hudud aholisi uchun tibbiy xizmat eng dolzarb masala edi. Bu yerda zamonaviy tug‘uruqxona qurilishi boshlanibdi. Ushbu sa’y-harakat ona va bola salomatligini muhofaza qilishdagi muhim qadam bo‘ldi.

— Poliklinikamiz eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan, laboratoriya xonalari, kunduzgi va kechki statsionar xizmati mavjud, — deydi shifokor Jamila Urazaliyeva. — Oldin hududimizda tug‘uruqxona bo‘lmagani bois, homilador ayollarni 350 kilometr uzoqdagi tuman markaziga bir hafta oldin jo‘natishga majbur bo‘lardik. Endi oilaviy poliklinikamiz yonida zamonaviy tug‘uruqxona bunyod etilmoqda.

Haqiqatan, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Qo‘ng‘irot tumani hududida xalqaro ahamiyatdagi “A380 “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” avtomobil yo‘lida 240 kilometrli sement-beton qoplamali yangi yo‘l barpo etilishi Qoraqalpog‘iston shaharchasi hayotida yangi davrni boshlab berdi.

Shaharchaga safarimizni yakunlab, ravon yo‘l bilan ortga qaytdik. Uzundan-uzoq tekis yo‘lda beshikda tebranayotgan go‘dak kabi chayqalib, 5 soat deganda manzilimizga yetib keldik. Yo‘l-yo‘lakay oldingi ahvolni ko‘z oldimizga keltirib, bugungi kunimizga ich-ichimizdan shukrona aytdik.

Yana bir yangilik tarqaldi. Prezidentimizning joriy yil 14-avgustdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan “A-380 “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘lining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidan o‘tuvchi qismida 3 ta yo‘lbo‘yi servis obyekti qurilishi va tayyor biznes shaklida realizatsiya qilinishi ta’minlanadi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING YAGONA KONSEPSIYASI

PREZIDENTIMIZ RAISLIGIDA MAKTABGACHA TA’LIM VA MAKTAB TA’LIMI SOHASIDAGI ISLOHOTLAR IJROSI HAMDA KELGUSIDAGI USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMASI YUZASIDAN O‘TKAZILGAN VIDEOSELEKTOR YIG‘ILISHIDAN KEYINGI MULOHAZALAR

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Yuqorida nomi qayd etilgan muassasa hamda jamiyatlar alohida-alohida ishlaganda kuch va resurslar taqdimotida noaniqliklar yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emasdi. Bir brend ostida birlashtirish esa dasturlarni yagona standartga keltirish, ustozlar malakasini tizimli oshirib borish, jihozlash ishlarini izchil yo‘lga qo‘yish, takrorlanayotgan to‘garaklarni optimallashtirish demakdir. Har bir tumanda bitta markaz atrofida robototexnika, AT, sport, san’at, teatr, mediasavodxonlik, debat, startap laboratoriyalari yo‘lga qo‘yilsa, iste’dodlarni erta kashf etib, ularni qiziqishlari bo‘yicha yo‘naltirish mumkin.

Intizomga o‘rgatuvchi omillar

Bunday tizim yoshlar siyosatining profilaktik chorasi hamdir. Zero, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, to‘g‘ri yo‘naltirish radikal g‘oyalar, ko‘cha submadaniyati va zararli odatlarga qarshi eng kuchli vosita. Sport va san’at bolani intizomga o‘rgatadi, texnik yo‘nalishlar esa mehnat bozorida kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni beradi. Erta kasbga yo‘naltirish migratsiya bosimini kamaytiradi, mahalliy iqtisodiyotga mos kadrlar yetishtiradi.

Amaliy mexanizmlar ham aniq bo‘lishi kerak: ixtiyoriylik tamoyili, qizlar ishtirokini oshirish uchun xavfsiz muhit va kechki qatnov masalasi, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun moslashtirish, o‘qituvchilarga ortiqcha yuklama bermaslik, to‘garak rahbarlariga qo‘shimcha haq va sertifikatlash tizimi shular jumlasidan. Raqamli platforma orqali ro‘yxatdan o‘tish va jadvalni ko‘rish qulay bo‘lsa, qamrov oshadi. Mahalla, oliy ta’lim va biznes bilan hamkorlik esa amaliy loyihalarni ko‘paytiradi.

— Shu vaqtga qadar bog‘cha, maktab va oliy ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi yaxlit tizim yo‘q edi. Shu nuqtayi nazardan, ularni bir-biriga bog‘laydigan, biri ikkinchisini mantiqan davom ettiradigan yagona ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi yaratildi: oylarga nom berildi, uni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi, — deydi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari Farhod Boqiyev. — O‘zbekistonda milliy tarbiya modelini yaratish bo‘yicha ham aniq vazifalar belgilab olindi. Xususan, joriy o‘quv yili o‘ziga xos yangilik bilan boshlandi. Ya’ni barcha bog‘cha, maktab va oliygohlarda har dushanba “Kelajak soati” darslari o‘tilmoqda. Mazkur darslardagi har bitta mavzu videokontentlar bilan boyitilib, barcha uchun ochiq bo‘lgan milliytarbiya.uz platformasiga joylashtirildi.

Umuman olganda, “Kelajak” markazlari va maktab maslahatchisi institutini joriy etish bo‘sh vaqtni jamiyat kapitaliga aylantirish yo‘lidagi muhim strategik qadamdir. Mazkur tashabbus, shubhasiz, ta’limning tarbiyaviy qismiga tayanch bo‘ladi, mamlakatning inson resursini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Besh kun ish, bir kun o‘qish

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida kechgan islohotlar katta natijalarni ko‘rsatmoqda. Sohada keyingi 8-yilda bolajonlar uchun qo‘shimcha 2,5 million o‘rin yaratilib, ko‘rsatkich 78 foizga yetgani davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘zini oqlayotganini bildiradi. Shu bilan birga, jarayonning uzluksizligini ta’minlash maqsadida har yilgi demografik o‘zgarishlarga mutanosib ravishda yangi o‘rinlar ochish rejalashtirilmoqda. Bu esa aholining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, maktabgacha ta’limni yanada kengaytirish va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Yangi qurilayotgan ko‘p qavatli uylar tarkibida aholi soniga mutanosib bog‘cha barpo qilinishi ham navbat muammosini bartaraf etish, ota-onalarga qulaylik yaratish hamda bolalarning maktabgacha ta’limdan chetda qolmasligini ta’minlash uchun muhim choradir.

Infratuzilma kengayishi bilan birga tarbiyachilar malakasini oshirish masalasi ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bugungi kunda davlat bog‘chalarida tarbiyachilarning 38 foizi, xususiy bog‘chalarda esa atigi 24 foizi oliy ma’lumotli. Shu bois, yangi o‘quv yilidan boshlab “1+5” modeli — bir hafta davomida besh kun ishlash va bir kun o‘qish shaklidagi bakalavriat dasturi joriy qilinmoqda. Bu tizim orqali har yili oliy ma’lumotli qariyb 10 ming tarbiyachi tayyorlanishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, bu yil bog‘cha o‘rinlarini 182 mingtaga ko‘paytirish rejalashtirilmoqda: 82 ming o‘rin yangi bog‘chalar hisobiga, qolgan 100 ming o‘rin esa mavjud muassasalarni ta’mirlash va xususiy sektorni jalb qilish orqali yaratiladi. Qamrov darajasi 80 foizdan past bo‘lgan tuman va shaharlarda esa xususiy sektorning faol ishtiroki rag‘batlantiriladi. Endi bog‘cha va maktablarning bo‘sh maydonlarida davlat-xususiy sherikligi asosida yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari barpo etish mumkin. Tadbirkorlarga yer maydonlari tekin ajratilishi, faoliyatni boshqa maqsadlarga o‘zgartirmaslik sharti bilan 7 yilgacha imtiyozli kredit berilishi ularga qo‘shimcha imkoniyat yaratadi, natijada maktabgacha ta’lim sohasi biznes uchun jozibador yo‘nalishga aylanadi. Bu esa yangi ish o‘rinlari ochish, hududlar kesimida qamrovni kengaytirish va sifatni oshirishga zamin yaratadi.

Kelgusi uch yilda 14 hududda “Yangi avlod” maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilmoqda. Ularning tarkibida Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlari faoliyat yuritadi. Ushbu markazlar zamonaviy metodikalarni tatbiq etish, ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni erta rivojlantirishga qaratiladi. Natijada oddiy bog‘cha modeli emas, balki kelajak jamiyatiga tayyorlovchi, innovatsion yondashuvlarga asoslangan muassasalar shakllanadi.

Qamrov kengayib bormoqda

— Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrov 78 foizni tashkil qilayotgan bo‘lsa, har yilgi demografik o‘sishlar 180 mingdan ziyod yangi o‘rin yaratishni talab etmoqda. Videoselektorda bu borada xususiy sektorni jalb qilish bo‘yicha mexanizmlar xususida batafsil ma’lumot berildi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi departament direktori Lola Berdiyeva. — Davlat-xususiy sheriklik loyihalariga ko‘ra, xususiy sherikka maktab yoki bog‘cha hududidan yer maydonlari to‘lov shartlarisiz ajratiladi va ularga o‘ttiz yil muddatga maktabgacha ta’lim tashkiloti sifatida foydalanishga ruxsat beriladi. Bunga qo‘shimcha ravishda har bir bolaga ketadigan xarajatlarning 50 foizi subsidiya shaklida to‘lab berilishi, shuningdek, bunday faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun imtiyozli kreditlar nazarda tutilgan. Muhim yangilik har bir hududda Prezident maktablari tajribasi asosida yangi avlod bog‘chalari ochilishi bo‘ldi. Bu orqali biz bolalarning ta’limning keyingi bosqichiga tayyorligi va ishtiyoqini oshirib boramiz.

Bog‘cha ta’limida faqat joy va kadr emas, ta’lim mazmunining o‘zi ham zamon talabiga mos bo‘lishi lozim. Ayni maqsadda haftalik tematik paketlar ishlab chiqish, bolalar kontentini “Milliy tarbiya” platformasiga joylashtirish va interaktiv vositalar bilan boyitish rejalashtirilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, qamrovni kengaytirish, sifatni ta’minlash, xususiy sektorni jalb etish va innovatsion markazlar tashkil etish orqali maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarish maqsad qilingan. Bu jarayon bolalarning erta yoshdan boshlab bilim, tarbiya va ko‘nikmalarni egallashiga sharoit, ota-onalar uchun ijtimoiy qulayliklar yaratadi. Iqtisodiy jihatdan esa yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Shu tariqa maktabgacha ta’lim sohasidagi keng qamrovli islohotlar kelajak avlod tarbiyasi va mamlakat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Maktab ta’limi: imkoniyat va muammolar

Oxirgi uch yilda mamlakatimizda 201 ta ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etildi. Bu iqtidorli yoshlarni erta aniqlash va ularga chuqurlashtirilgan ta’lim berish uchun katta imkoniyat. Ammo 12 ta maktabda qurilish-ta’mirlash ishlari hanuz yakunlanmagan, bu esa hududiy boshqaruvdagi sustkashlikni ko‘rsatadi.

Maktabga qatnov ham muhim masalalardan. Uzoq hududlardagi 74 ming o‘quvchi 5-7 kilometr masofani bosib maktabga qatnashga majbur. Qashqadaryo va Surxondaryoda 100 ta maktabga bepul avtobus ajratilgani ijobiy yechim sifatida baholanmoqda. Bunday amaliyot boshqa hududlarda ham joriy etilishi kutilyapti.

Maktab ta’limini mazmun jihatidan yangilash borasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. O‘tgan yil 1-sinflarda informatika darslari yo‘lga qo‘yildi. Keyingi o‘quv yilidan esa yuqori sinflarda sun’iy intellekt bo‘yicha maxsus darslar kiritilishi rejalashtirilgan. Buning uchun 2 ming sinfxonani kompyuter va interaktiv doskalar bilan jihozlash ko‘zda tutilgan. Bu tashabbus faqat texnik ta’minot bilangina emas, balki o‘qituvchilarni tayyorlash, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va baholash tizimini takomillashtirish bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim.

O‘qituvchilarning kasbiy salohiyati ta’lim sifatida hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Shu sababdan ularga metodik yordam beruvchi hududiy markazlar, mentorlik dasturlari va malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Shuningdek, o‘quv dasturlarini loyihaviy ishlarga yo‘naltirish, fanlararo integrasiyani kuchaytirish ham bugungi kunda dolzarb masala.

Maktablar o‘rtasidagi sifat farqi esa ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Bu tafovutni kamaytirish uchun resurslarni adolatli taqsimlash, raqamli monitoring tizimini joriy etish va qamrov ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish muhim. Tezkor choralar sifatida yakunlanmagan 12 ta maktab qurilishini tugatish, avtobuslar tarmog‘ini kengaytirish, 2 ming sinfxonani jihozlash va informatika hamda sun’iy intellekt kurslarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan.

Zamonaviy dunyo tobora texnologik taraqqiyot yo‘liga chiqmoqda

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari iqtisodiyot tarmoqlarining bugungi va ertangi talablari haqida so‘z yuritib, texnika hamda muhandislik yo‘nalishlarini rivojlantirish masalasiga alohida to‘xtaldi. Bu bejiz emas. Chunki zamonaviy dunyo tobora texnologik taraqqiyot yo‘lidan borar ekan, yangi avlodning raqobatbardosh bo‘lishi, mamlakatning sanoat salohiyati ham shunday mutaxassislar tayyorlashga bevosita bog‘liq.

Shu bois, mutasaddi idoralar tashabbusi bilan Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida 14 ta hududda muhandislik maktablari tashkil etilmoqda. Bu maktablarga o‘quvchilar imtihon asosida saralab olinadi va ta’lim jarayoni to‘liq davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Shuningdek, bu muassasalarda “Yangi O‘zbekiston” universiteti hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashgan maktab tajribasiga tayangan holda muhandislik dasturi yo‘lga qo‘yiladi. Darslar 5 yillik maxsus dastur asosida, STEM modeli bo‘yicha o‘tilishi belgilangan.

Muhandislik ta’limining ommalashuvi uchun rag‘batlantiruvchi mexanizmlar joriy etilmoqda. Xususan, 2026-yildan e’tiboran har yili umumta’lim maktablari o‘rtasida Prezident sovrini uchun “Ilg‘or muhandislik maktabi” milliy tanlovi o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Bu tanlov nafaqat maktablararo sog‘lom raqobatni kuchaytiradi, balki bolalarda texnika va tabiiy fanlarga qiziqishni yanada oshiradi.

Tabiatshunoslik fanlarini chuqur o‘qitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Barcha hududlarda ixtisoslashgan maktablar tashkil etilishi, Toshkent shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi maktab esa shu yo‘nalishda tayanch maktab sifatida xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Bu orqali ilm-fan va ta’lim uzviyligi ta’minlanadi, yoshlarimizning fundamental bilimlari mustahkamlanadi.

Ayni paytda texnika oliy ta’lim muassasalari safi kengaymoqda. Jumladan, mashhur N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti filiali, “ToshTech” texnika universiteti hamda Olmaliq davlat texnika instituti ochilishi belgilangan. Bunday tashabbuslar xalqaro ta’lim tajribasini jalb etishga, zamonaviy kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Avloniy izdoshlari rag‘batlantiriladi

Yana bir yangilik o‘qituvchilikka mehr qo‘ygan yoshlarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Hozirgi kungacha bu sohada alohida davlat stipendiyasi yo‘q edi. Shu bois, joriy o‘quv yilidan boshlab pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasi ta’sis etilmoqda. Stipendiya bakalavriatning 3-4-kurslari uchun bo‘ladi, yoshlarni o‘qish va ilmiy izlanishlarga undaydi.

Shuningdek, yig‘ilishda fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar taqdimot qilindi. Bu ikki sohadagi islohotlar bir-biriga chambarchas bog‘liq. Vatanimiz kelajagini tasavvur qilarkanmiz, bu yo‘nalishlarni ajratib qarashning imkoni yo‘q. Negaki jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiyot modernizatsiyasi, yangi texnologiyalar joriy etilishi — bularning barchasi, avvalo, ilmiy salohiyatga tayanadi.

Oliy ta’limdan keyingi bosqich — doktorantura tizimining takomillashtirilishi ham dolzarb masala sifatida ilgari surildi. Hozircha kvotalar umumiy ehtiyojga qarab belgilanayotgan bo‘lsa, endilikda ular mamlakat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq taqsimlanadi. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiyotning qaysi sohasiga ilmiy yondashuv, yangi ishlanma zarur bo‘lsa, o‘sha yerda malakali ilmiy kadrlar ko‘proq tayyorlanadi. Masalan, energetika, qishloq xo‘jaligi, sun’iy intellekt, sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarda chuqur tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj bor. Demak, bundan buyon ilmiy resurslar aniq maqsad sari yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, Fanlar akademiyasining jamiyat hayotidagi roli qayta belgilab olinmoqda. Avvallari akademiya ko‘proq ramziy nufuz bilan bog‘langan, endi esa u mamlakat taraqqiyotining ilmiy markazi sifatida maydonga chiqmoqda. Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar akademiyaning uch asosiy yo‘nalishi etib belgilangan. Fundamental ilm yangi nazariyalar, yangi ilmiy konsepsiyalar tug‘iladigan manbadir. Amaliy tadqiqotlar, innovatsion ishlanmalar esa aynan bugungi bozor ehtiyojiga mos, daromad keltiradigan texnologiyalarni yaratadi. Shu uchala yo‘nalishni uyg‘unlashtirmasdan turib iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish haqida gapirish mushkul.

Albatta, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish masalasi ham e’tibordan chetda qolmadi. Ko‘p hollarda bizda ilmiy tadqiqotlar qog‘ozda qolib ketar, laboratoriya natijalari esa ishlab chiqarish sexiga yetib bormasdi. Endilikda bu bo‘g‘in qat’iy nazorat ostiga olinadi, ilmiy g‘oyalar real hayotga xizmat qila boshlaydi. Shu jarayon samarali yo‘lga qo‘yilsa, iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘sadi, yosh olimlarda ham mehnatining qadriga ishonch hissi kuchayadi.

Kelajak ta’lim va muallimga bog‘liq

Yig‘ilishda eng ko‘p urg‘u qaratilgan masalalardan biri o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi mavqeini oshirish bo‘ldi. Chunki ta’limga qanday islohot, qanday infratuzilma yoki texnologiya joriy etilishidan qat’i nazar, baribir inson omili — pedagog shaxsi orqali hayotga tatbiq etiladi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, iqtisodiyot rivoji, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta’lim va muallimga bog‘liq.

Keyingi uch yilda o‘qituvchilarning moddiy ta’minoti sezilarli darajada oshdi. Maosh tizimiga 10 dan ortiq ustama kiritildi, bu esa faol va natija ko‘rsatgan pedagoglarni alohida rag‘batlantirish imkonini berdi. Bugungi kunda o‘z ustida tinimsiz ishlagan 60 mingdan ortiq o‘qituvchi 10-12 million so‘mgacha maosh olmoqda. Yangi baholash tizimi ham o‘z natijasini bera boshladi: dastlabki bosqichda 1,5 ming maktab qamrab olindi, ularning 300 tasi ijobiy ko‘rsatkichga erishdi va natijada butun jamoa 40 foizgacha ustama olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bundan tashqari, joriy oydan boshlab maktab direktorlari, bog‘cha mudiralari va ularning o‘rinbosarlari maoshi 10 million so‘mdan oshdi. Demak, islohot endi rahbar xodimlar uchun motivatsion mexanizmni taqdim etmoqda.

Qo‘shimcha ustamalar, moddiy rag‘batlar faqat oylik daromadni ko‘paytiribgina qolmay, kasbning ijtimoiy nufuzini ham oshiradi. O‘qituvchining jamiyatdagi obro‘si kuchaygan sari yoshlarning pedagogikaga qiziqishi ortadi. Bu esa kelajakda malakali kadrlarga ehtiyojni tabiiy yo‘l bilan qondiradi.

“Kasb-hunarga o‘rgatish yili”

Yurtimizda 450 ming o‘quvchini qabul qila oladigan 598 ta texnikum mavjud bo‘lsada, ularga yoshlarning qiziqishi va bandlik ko‘rsatkichlari yetarli darajada emas. 2024-yilda 9-sinfni 608 ming o‘quvchi tamomlagan bo‘lsa, ularning atigi 182 ming nafari texnikumlarga yo‘naltirilgan. Demak, bor-yo‘g‘i uchdan bir qismi kasbiy ta’lim tizimiga qamrab olingan, qolganlari esa umumta’limni davom ettirish yoki mehnat bozorida rasmiy malakasiz faoliyat yuritish yo‘lini tanlagan. Bu esa ikki tomonlama xavf tug‘diradi: bir tomondan, yoshlarning barqaror daromad topish imkoniyatlari cheklanadi, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish tarmoqlarida malakali ishchi kuchi tanqisligi kuchayadi. Shu bois, joriy yilni amalda “Kasb-hunarga o‘rgatish yili”ga aylantirish tashabbusi ilgari surildi.

Mavjud texnikumlarning ko‘pi o‘z dasturlarini zamonaviy ishlab chiqarish talablari bilan uyg‘unlashtira olmagan. Shu sababli ta’lim sifati bilan bozor ehtiyoji o‘rtasida katta tafovut yuzaga kelmoqda. Buni bartaraf etish uchun barcha texnikumlarni bosqichma-bosqich zamonaviy kasbga o‘qitish muhiti bilan ta’minlash, o‘quv dasturlarida amaliyot ulushini oshirish, dual tizimni keng joriy etish va o‘quvchilarning kamida 30-40 foiz dars soatlarini bevosita korxonalarda amaliyot sifatida o‘tkazish belgilandi. Shuningdek, investorlardan kelayotgan buyurtmalarga mos kadr tayyorlash imkoniyatlari yaratiladi, ya’ni texnikumlarda o‘quv dasturlarining uchdan bir qismi bevosita bozor talabi asosida shakllantiriladi.

Prezidentimizning yaqinda Xitoyga tashrifi chog‘ida 35 milliard dollarlik istiqbolli loyihalar paketi imzolangan edi. Bu loyihalar uchun yuzlab yangi texnologiya va minglab malakali kadr zarur bo‘ladi. Shu bois, har bir viloyatda kamida ikkita “O‘zbekiston — Xitoy ustaxonasi” tashkil etilishi belgilandi. Bu ustaxonalar bir vaqtning o‘zida zamonaviy texnologiyalarni yoshlar amaliyotida o‘rgatish, xorijiy tajribani, xususan, Xitoyning ishlab chiqarish metodlarini yoshlar ongiga singdirish imkonini beradi. Shuningdek, texnikumlarda va oliy ta’lim muassasalarida xitoy tili o‘qitilishi kengaytiriladi, yuzdan ortiq til egasi va volontyor jalb etilishi rejalashtirilgan. Bu tashabbus yoshlarning bevosita xalqaro hamkorlik loyihalariga kirishini ta’minlaydi.

Mamlakat miqyosida kasbiy ta’limni yagona siyosat asosida rivojlantirish uchun yangi Kasbiy ta’lim agentligi tashkil etilishi belgilandi. Agentlik barcha texnikumlarni yagona boshqaruv ostida rivojlantirish, dasturlarni zamonaviylashtirish, moliyaviy resurslarni muvofiqlashtirish va bozor ehtiyojiga asoslangan standartlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Yig‘ilishda bir muhim jihat ochiq tanqid qilindi: ko‘plab tarmoq uyushmalari hali ham o‘zlariga a’zo bo‘lgan korxonalarning malaka talablarini tayyorlab bera olmayapti. Natijada korxonalar ham, texnikumlar ham aniq yo‘nalishsiz qolmoqda. Bu esa ta’lim mazmunining bozor talabiga mos kelmasligiga olib kelyapti. Shu sababli yil yakuniga qadar yangi agentlik bilan birgalikda har bir tarmoq bo‘yicha kasblar kesimida standart va talablar ishlab chiqilishi topshirildi.

Kasbiy ta’lim iqtisodiyot va ta’lim o‘rtasidagi ko‘prikdir. Agar u mustahkam bo‘lsa, yoshlar kelajagini aniq ko‘radi, korxonalar malakali ishchi kuchiga ega bo‘ladi, mamlakat iqtisodiyoti esa barqaror o‘sadi. Bugungi topshiriqlar — mavjud texnikumlarni zamonaviylashtirish, duallik tizimini joriy qilish, xalqaro ustaxonalar ochish va yagona boshqaruv agentligini tashkil etish qisqa muddatda katta samaralar berishi mumkin. Eng muhimi, 9-sinf bitiruvchilarining kamida yarmi texnikumlar bilan qamrab olinishi vazifasi qo‘yilgan. Mazkur natijaga erishilsa, yoshlarning bandlik masalasi va iqtisodiyot uchun zarur kadrlar ta’minoti ancha yengillashadi.

Ta’lim va fan sohalaridagi bunday keng ko‘lamli islohotlar mamlakatimizning intellektual qudratini oshirish, xalqaro maydonlarda munosib o‘rin egallashi uchun qo‘yilayotgan poydevordir. O‘zbekiston bugun o‘z taraqqiyot yo‘lining yangi bosqichi sari yuz tutmoqda. Bu yo‘lda maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar tizimigacha bo‘lgan har bir bo‘g‘in uyg‘un ishlashi kerak. Ana shunda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi nafaqat siyosiy shior, balki amaliy hayot tarziga aylanadi.

Jahon bozorida doim yurtimiz qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘z o‘rni va bahosi bo‘lgan. Ayniqsa, unumdor yer, quyoshli iqlim sharoitida pishib yetilgan meva-sabzavotlarimiz borasida xorijliklar hamisha iliq fikrda. Ular tabiiy va shirin bo‘lgani uchun chet ellarda juda qadrlanadi. Xorijga safar qiladigan yurtdoshlarimiz ham o‘zimizdagi ta’mni boshqa joylardan topa olmasligini ko‘p gapiradi. Keyingi yillarda bu e’tirofni chet elliklar ham ta’kidlamoqda. Tashqi bozorlarda “O‘zbekistonda yetishtirilgan” degan brend shakllanib, ommalashayotgani boisi shunda.

Taraqqiyot mezonlari

“O‘ZBEKISTONDA YETISHTIRILGAN”

OZIQ-OVQAT EKSPORTIDA MILLIY BREND YARATILMOQDA

Yaqin yillargacha talab katta, ammo shunga yarasha taklif bo‘lmagan. Gap shundaki, yurtimizda qishloq xo‘jaligi asosan mavsumiy yetishtirishga moslashgani, yillar davomida sohaga bir tomonlama e’tibor qaratilib, zamonaviy va ilmiy yondashuv bo‘lmagani, mahsulotlarni uzluksiz yetkazib berish mexanizmi yo‘lga qo‘yilmagani bois, chet davlatlardan doimiy importyorlarni topishda muammolar bo‘lgan. Faqat qo‘shni davlatlarga eksport qilish bilan cheklanib kelganmiz.

2017-yildan keyin sohadagi ana shu masalalarning tizimli yechib borilishi mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi qanchalik katta salohiyatga ega ekanini amalda ko‘rsata boshladi. Zamonaviy texnologiyalar va ilmga asoslangan qishloq xo‘jaligi shakllandi. Bugun sohadagi har bir loyiha ana shu mexanizm asosida olib borilyapti. Mahsulot yetishtirish jarayonlarida hech bo‘lmaganda, suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish hisobiga hosildorlikni karrasiga oshirayotgan mirishkorlar bor.

Nafaqat mahsulot yetishtirish, balki uni qayta ishlab, eksport qilishda katta tajriba to‘play boshladik. Ayrim raqamlarni ko‘rib ba’zan o‘zimizning ham ishongimiz kelmaydi. Boshqa tomondan, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda yetakchilardan bo‘lib kelgan mamlakatimiz, endi, eksportda ham yuqori o‘rinlarni egallayotgani kishini quvontiradi. Masalan, joriy yilning olti oyida yurtimiz oziq-ovqat eksporti 44 foiz o‘sib, 1 milliard 326 million dollar bo‘ldi. Eksport geografiyasi

16 ta davlatga ko‘paydi.

Ayniqsa, quritilgan olxo‘ri va o‘rik, shaftoli, mayiz, gilos, dukkakli mahsulotlar eksporti bo‘yicha yurtimiz dunyoda yuqori o‘rinlarda turadi. Sarxil meva-sabzavotlarning bozori ham chaqqon. Birgina uzum eksportini olaylik. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston jahonning 67 ta mamlakatiga ayni shu mahsulotni yetkazib bermoqda. Joriy yilning yetti oyida qiymati 98,3 million dollarga teng bo‘lgan 84,1 ming tonna uzum eksport qilindi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 barobar ko‘p.

Yangi tuzilma — yangi yo‘nalish

Eksport bo‘layotgan mahsulotlarning aksari xorij navi bo‘lib, ilmiy yondashuvlar asosida o‘zimizga moslashtirilgan, qolaversa, zamonaviy usulda, yangicha texnologiyalar asosida yetishtirilmoqda. Gap shundaki, hozir agrodehqon, tadbirkorlarimiz, eksportyor korxonalar ancha yangicha ish uslubiga o‘tgan. Biz biladigan mahalliy gilos, olma, uzum va boshqa mevalar o‘rnini jahon bozorida talabgir yangi navlar egallayapti.

Shu yilning iyun oyida Parkent tumanidagi “Meridian Tempo” korxonasiga qarashli kattagina intensiv bog‘da shunga amin bo‘lgandim. Har donasi hovuchni to‘ldiradigan gilos mevalarini ko‘rib, hayratda qoldim. Oldimizga qo‘yilgan gilosni ko‘rishim bilan, “Bu qanday nav, buncha katta bo‘lmasa bu gilos?”, degan savolni bergandim. Mevaning mazasini-ku, aytmasa ham bo‘ladi. Bir og‘izga solsangiz, qayta-qayta yegingiz keladi. Shirasi juda baland, ammo ta’bingiz tortaveradi.

Intensiv bog‘ning naq 54 gektar maydonida gilos, olma, nok va malinaning eksportbop navlari ekilgan. Ko‘chatlar Fransiya va Ispaniyadan keltirilgan. Bog‘dagi barcha ishlar zamonaviy texnologiyalar asosida olib boriladi. To‘liq tomchilatib sug‘orish joriy etilgan, daraxtlar o‘zini o‘zi changlatish xususiyatiga ega, bog‘da hatto quyosh panellari ham o‘rnatilgan. Tadbirkorlarimiz xorij bozoriga ana shunday xalqaro talablarga mos, oliy navdagi meva-sabzavot mahsulotlarini yetkazib beryapti. Ularning narxi ham sifatiga yarasha. Bundan keladigan daromad boshqa an’anaviy o‘simliklarga nisbatan bir necha barobar yuqori bo‘ladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan asosida yetishtirilayotgan mahsulotlar sifati ham, hosildorligi ham oshib, yil o‘n ikki oy hosil olishga erishilyapti. Endilikda ana shu jarayonni tizimlashtirish, hududlarni ma’lum mahsulotga ixtisoslashtirish, importyorlarga mahsulotni uzluksiz yetkazib berish, jahon bozorida milliy brendni yaratish eksport yo‘nalishidagi asosiy masalaga aylangan.

Buning yechimi sifatida davlatimiz rahbarining tegishli farmoni hamda qarori bilan joriy yil fevral oyida mamlakatimizda ilk bor “Uzagrostar xolding” kompaniyasi ish boshladi. Tuzilma muassisligida 16 ta ixtisoslashgan korxona tashkil etildi. Xolding tarkibida Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirish va qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha Kengash tuzildi.

— Joriy yil 14-fevralda qabul qilingan “Uzagrostar xolding” kompaniyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarori, eng avvalo, yurtimizda tomorqachilik va dehqonchilikni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi, — deydi “Uzagrostar xolding” kompaniyasi direktori Fazliddin Muhiddinov. — Kompaniyaning asosiy vazifasi qishloq xo‘jalik mahsulotlarining milliy brendini yaratish va eksportini rivojlantirishga qaratilgan. To‘g‘ri, O‘zbekistonda jarayonni muvofiqlashtiradigan vazirlik, bir qancha tuzilma va tashkilotlar bor. Kerak bo‘lsa, har bir hududda ularning bo‘limlari ish olib boryapti. Ammo davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan “Uzagrostar xolding” kompaniyasiga ularni takrorlamaydigan ayrim muhim vazifalar belgilab berilganki, bunda asosiy e’tibor tomorqa yer egalari, dehqon va fermerlar bilan hamkorlikda tizimli ravishda ish olib borishga yo‘naltirilgan.

Gap shundaki, bugungi kunda yurtimizda 22 million tonnadan oshiqroq meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirilsa, shuning 70 foizi aholi tomorqalari va qishloq xo‘jaliklari yerlariga to‘g‘ri keladi. Ammo ularning sifati har doim ham eksport talablariga mos kelmaydi. Endilikda “Uzagrostar xolding” kompaniyasi ular bilan hamkorlikda mahsulotlarni tizimli ravishda yetishtirib, yagona brend ostida eksport qiladi. Tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklariga tuproq tahlilidan tortib, eksportgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda yaqindan ko‘mak beradi. Shu tariqa jahon bozorida milliy brend yaratiladi.

Tanlab olingan yo‘nalishlar bo‘yicha mahallalardagi xonadonlargacha kirib boriladi. Dastlab 100 ta mahalla tanlab olingan bo‘lib, ularda ma’lum turdagi sifatli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish yo‘lga qo‘yilmoqda. Keyingi yillarda mahallalar soni ko‘paytirib

boriladi, jumladan, 2026-yilda ularning sonini 500 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Ixtisoslashuv nima beradi?

Xolding tarkibidagi 16 ta korxonaning har biri alohida turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Ular 16 ta bazaviy hamda 54 ta qamrab olingan tumanlarda faoliyat olib bormoqda. Har bir agrostar korxona o‘zi mas’ul bo‘lgan hududda tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari bilan hamkorlik asosida ma’lum turdagi mahsulotni yetishtirishni yo‘lga qo‘yadi.

Aytaylik, bir mahallada 15 ta tomorqa yer egasi pomidor yetishtiradi, ammo ularning turi va sifati har xil bo‘lgani bois, jamlab, eksportga yo‘naltirib bo‘lmaydi. Qolaversa, hosil ham yuqori qiymatli emas, yer egalari o‘z tajribasiga ko‘ra yetishtiravergan. Ana shu tizimni birlashtirib, umumiy mahsuldorlikni oshirishni agrokorxonalar o‘z zimmasiga olyapti. Aholi tomorqalarida bir xil turdagi va sifatli mahsulot yetishtirishga qaratilgan ishlarni olib bormoqda. Olingan hosilni esa yagona milliy brend ostida eksport qilyapti.

Masalan, “Yangiyo‘l — agrostar” MCHJ pomidor va bulg‘or qalampiri yetishtirish bilan shug‘ullansa, “Asaka — agrostar” MCHJ sabzavot ko‘chatlari, “Oltiariq — agrostar” korxonasi esa uzumchilikka ixtisoslashgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugunga qadar jami filiallarga biriktirilgan tumanlarda 101 ming gektar yer maydonida ixtisoslashgan mahsulotlar ekilgan.

Agrostar korxonalar faqat ma’lum turdagi sifatli mahsulot yetishtirib, uni eksport qilish bilangina shug‘ullanmaydi. Birinketin mahsulotlarni qayta ishlash ham yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu borada yuzdan oshiq loyihalar belgilangan. Shundan qiymati 608 milliard so‘mlik 20 ta innovatsion loyiha uchun 693 gektar yer maydoni ajratilgan. Ayni paytda zamonaviy loyihalarning 8 tasini amalga oshirish ishlari boshlangan. Umuman, agrostar korxonalarning har birida mahsulot yetishtirish ishlari zamonaviy usullar yordamida olib boriladi.

Olma va nok mevalarini yetishtirishga ixtisoslashgan “Bazanbar — agrostar” MCHJ o‘ziga xos yangilik qildi. Baxmal tumanida 15 gektar yer maydoniga Fransiya kompaniyasida in-vitro usulida tayyorlangan olma ko‘chatlari olib kelinib, ekildi. Buning o‘ziga xosligi shundaki, ko‘chatlar ilmiy o‘rganishlar asosida shu yilning ayni yoz chillasida yerga qadaldi. Mutaxassislarning aytishicha, ayni paytda hosil gullagan.

“Bulung‘ur — agrostar” MCHJ kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan. Tumanlardagi katta yer maydonlarida 10 ming dona kasalliklarga chidamli, sifatli kartoshka urug‘lari navlari stakan usulida ekildi. Gollandiya kompaniyasi bilan 6 ming tonna elita kartoshka urug‘larini olib kelish bo‘yicha kelishuvga erishilgan. Kartoshkalarni saqlash va eksport qilish choralari ham ko‘rilmoqda. Bulung‘ur tumanidagi 2 gektar maydonda tashkil etilayotgan agrokompleksda 10 ming tonna kartoshka saqlash, kalibrovka qilish, qadoqlash va logistika quvvatlari ishga tushiriladi. Qolaversa, kartoshkaning xorij navlarini mahalliylashtirish maqsadida Xalqaro kartoshka markazi bilan hamkorlikda in-vitro laboratoriyasida yangi urug‘ navlarini yaratish ishlari boshlangan.

Mahsulotlar, albatta, aholi tomorqalari va dehqon xo‘jaliklari yerlarida yetishtiriladi. Masalan, “Sherobod — agrostar” korxonasi tomonidan belgilangan hududlarda qiymati 508 milliard so‘m bo‘lgan 150 ming dona xurmo va anjir ko‘chatlari aholi tomorqalariga yetkazib berildi. Turkiyadan sifatli, danaksiz xurmo ko‘chatlari olib kelinib, 25 gektar maydonga ekildi. Ayni shu meva turlarini yetishtirishga ixtisoslashgan kompaniya namunaviy loyiha asosida Uzun tumanidagi 100 gektar yer maydonida xurmo va anjir agroplantatsiyasini tashkil qilish ishlarini boshlab yuborgan. Zamonaviy kompleksda mahsulot yetishtirishdan eksportgacha bo‘lgan barcha bosqichlar qamrab olinadi.

“Yangiyo‘l — agrostar” MCHJ ham ixtisoslashuvni yanada kengaytirish maqsadida 61 mahalladagi tomorqa va dehqon xo‘jaliklariga arzon narxlarda sifatli pomidor ko‘chati, bulg‘or qalampiri urug‘lari hamda mineral o‘g‘itlarni yetkazib bermoqda. Kompaniya tomonidan tashkil etilgan “Tomorqa maktabi”da sohaga oid 5 mingdan ortiq kitoblar joylashtirilib, 2 ta mahalliy professor va 1 ta xorijlik mutaxassis ishtirokida bir oy davomida 200 gektarga yaqin tomorqa yer va dehqon xo‘jaliklari egalari o‘qitildi. Italiyalik mutaxassislar tomonidan pomidorni quyoshda quritib, qoqi tayyorlash texnologiyasi o‘rgatildi. Italiyada yetishtiriladigan pomidor navi qoqi uchun qulay sort sifatida tanlab olinib, Yangiyo‘l tumanidagi 500 gektar, Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanidagi 100 gektar maydonda yetishtirilib, qoqi tayyorlandi. Bugungi kunda 150 tonna pomidor qoqisi Italiyaga eksport qilinyapti.

Yangi bozorlar qanday topilyapti?

Zamonaviy usulda mahsulot yetishtirib, eksport qilishdan agrostar korxona ham, tomorqa va dehqon xo‘jalik yerlari egalari ham birdek manfaatdor. Shu bois, har bir jarayon ilmiy mutaxassislar ishtirokida, aniq tartib asosida olib boriladi. Hududlarda 7 ta ixtisoslashgan korxona va loyiha ofislarida “Tomorqa maktabi” faoliyati yo‘lga qo‘yilgani boisi shunda. Ularda “Uzagrostar xolding” kompaniyasi tomonidan jalb etilgan 20 ga yaqin xorijiy mutaxassislar, malakali mahalliy agronom, texnolog, usta-dehqonlar bilan shartnomalar imzolanib, agrokonsultant sifatida ish olib boryapti.

Demak, agrostar kompaniyalar tanlab olingan hududlarda aholini o‘z tomorqasida belgilangan turdagi mahsulotni yetishtirishga jalb qilishning o‘zi bilan cheklanmaydi. Aholini o‘qitib, yerga urug‘ qadashdan to hosilni eksport qilishgacha bo‘lgan jarayonda bevosita ishtirok etadi. Talabgorlarga moliyaviy ko‘mak “Uzagrostar xolding” kompaniyasiga biriktirilgan 9 ta tijorat banki va ularning filiallari tomonidan amalga oshiriladi.

Ammo masalaning boshqa tomoni ham bor. Hozir dunyo bozorida vaziyat qaltis, har kuni talab va narx-navo tebranishi kuzatilmoqda. Qolaversa, iste’molchilarning qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabi o‘zgarib boryapti, ular o‘zlarining standartlarini ochiq e’lon qilyapti. Bunday sharoitda agrostar korxonalar yetishtirayotgan mahsulotlarga doimiy va qimmatroq bozor topish masalasi ham asosiy jihatga aylanadi.

— Albatta, mahsulotga bozor topish eng muhim masalalardan biri. Bu bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqaro kompaniyalar bilan kelishuvlar o‘rnatilyapti, — deydi “Uzagrostar xolding” kompaniyasi bo‘lim boshlig‘i Sulaymon Murodov. — Avvalo, agrostar korxonalar tomonidan topilgan bozorlarga eksport amalga oshirib kelinyapti. Masalan, “Quva — agrostar” MCHJ tomonidan Norvegiyaga 4 xil navdagi 1 tonna uzum eksport qilindi. “Qo‘shrabot — agrostar” MCHJ esa Latviyaga 5 million dollarlik mayiz yetishtirib berish bo‘yicha kelishuv imzolagan va mahsulotning birinchi partiyasi jo‘natildi. “Yangiyo‘l — agrostar” korxonasi shartnomasiga ko‘ra, yaqinda Italiya davlatiga 200 tonna quritilgan pomidor eksport qilinadi. Yevropaning boshqa davlatlaridan ham quritilgan mahsulotlarga talab oshib boryapti. Sababi, Yevropa mamlakatlarida ayni quritilgan mahsulotlarga talab kattaligini kuzatdik va quyoshli yurtimizda yetishtirilgan meva-sabzavotlarning mazali ta’mi sabab ularning qoqisi ham alohida e’tirof etilyapti.

Yaqinda Londonda bo‘lib o‘tgan yirik yarmarkada ishtirokimiz davomida 3 million dollarlik quritilgan mahsulotlarga shartnoma imzolandi. Shu yilning oktyabr oyida esa Ispaniyada bo‘lib o‘tadigan meva-sabzavot ko‘rgazmasida ishtirok etamiz. Xolding tarkibidagi barcha ixtisoslashgan kompaniyalar mahsulotlarini yangi dizayn va qadoqda, yagona brend ostida namoyish etishni rejalashtirganmiz. Ma’lumki, Ispaniya dunyo bo‘yicha eksportda birinchi o‘rinda turadi va yillik qiymati 20 milliard dollarni tashkil etadi. Ko‘rgazmagacha bo‘lgan jarayonda mahsulotlarimizni Ispaniyadagi yirik importyorlarga tanishtirdik, ular allaqachon qiziqish bildirgan. Ko‘rgazma doirasida bir qancha shartnomalar imzolanishi kutilyapti.

Mubolag‘asiz aytganda, yurtimizda yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari ta’mini uncha-buncha davlatdan topolmaymiz. O‘zimizniki bo‘lgani uchun emas, xolis iste’molchi, mamlakatimiz savdo do‘konlarini to‘ldirib turgan chet el brendidagi mahsulotlarni tatib yurgan insonlar sifatidagi bahoimiz shunday.

Ana endi mana shu mahsulotlarimizni bir necha qo‘shni davlatga emas, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bozorlariga olib kirishni maqsad qilganmiz. Bu yo‘nalishda xalqaro standartlarga moslashib, sohaga ilmni, eng ilg‘or texnologiyalarni joriy etayotganimiz boisi shunda. Endi mahsulotlarimiz xorij bozorlari rastalarining bir chetidan emas, eng qimmat mahsulotlar joylanadigan qatordan o‘rin olyapti. Bu borada o‘zimizning milliy brendni yaratib, xalqaro maydonda ommalashtirish harakatidamiz.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ENDI SURXONDARYOLIKLAR FOYDALI MINERALLARGA BOY SUV ICHADI

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan yirik loyiha — To‘palang suv omboridan 361 kilometr masofaga magistral quvur yotqizish hamda aholini ekologik toza ichimlik suv bilan ta’minlash borasidagi ishlar jadal sur’atda davom etmoqda. Hozirga kelib, Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi tumanlari aholisi foydali minerallarga boy obihayotdan foydalanmoqda. Joriy yil yakunigacha loyiha to‘liq ishga tushirilib, Termiz shahri va 11 ta tumanning ichimlik suv ta’minoti sifati oshadi.

Inson qadri uchun

Ayni jarayonda Bandixon tumanining Obod turmush mahallasida yangi suv taqsimlash inshooti barpo etilib, tarmoqning Xo‘jaipok magistral suv quvuriga ulandi. Natijada Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Angor va Muzrabot tumanlaridagi 69 ta mahallada yashaydigan 193 ming kishining suv ta’minoti tubdan yaxshilandi.

Loyiha tufayli Bandixon tumaniga To‘palang suvining kelishi natijasida “Xo‘jaipok” tumanlararo ichimlik suv ishlab chiqarish va tarqatish bo‘limi nasoslarining ishlash quvvati 60 foiz qisqardi. Shu orqali bir oyda 504 ming kilovatt-soat elektr energiyasi tejalmoqda.

— Bunday yirik loyihalar amalga oshirilayotganining asosiy sababi — yurtimizda inson qadriga qaratilayotgan e’tibor va har bir sohaning tizimli rivojlanayotganida deb bilaman, — deydi “Surxondaryo suv ta’minoti” AJ Bandixon tumani bo‘limi boshlig‘i Anvar Choriyev. — Masalan, shu yilning o‘tgan davrida Bandixon tumanida suv ta’minoti infratuzilmasini mustahkamlash va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida xodimlar zamonaviy qazish texnikasi, avariyaviy holatlarni tezkor bartaraf etish imkonini beradigan maxsus jihozlangan avtomobil bilan ta’minlandi. Tashkilotning imkoniyati kengayib borishi aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishga yo‘l ochadi.

Shu paytgacha Bandixondek chekka va muammo jiddiy tus olgan tumandagi mahallalarga ichimlik suv muayyan jadval asosida berilar edi. Aholi esa bu suvni hovuzda yig‘ib, bir hafta saqlab ishlatgani ham bor gap. Yangi loyiha doirasida suv ta’minoti 24 soatlik uzluksiz rejimga o‘tkazildi.

Loyiha bo‘yicha Oltinsoy tumanida ham asosiy suv inshooti ishga tushirildi. Natijada 16 ta mahallada yashaydigan 43,8 ming kishi toza ichimlik suv bilan barqaror ta’minlandi. Mahallalardagi 22 ta suv inshooti ishini to‘xtatishi evaziga har oyda 457 ming kilovatt elektr energiyasi tejaladigan bo‘ldi.

— Ilgari aholi iste’mol qilgan obihayotning qattiqlik darajasi 7-8 milligramm ekvivalentni tashkil etgan bo‘lsa, o‘z oqimi bilan keladigan To‘palang suv ombori suvida bu ko‘rsatkich atigi 3-4 milligramm ekvivalentga teng. Bu holat endi iste’molchilarimiz foydali minerallarga boy ichimlik suvdan uzluksiz bahramand bo‘lishini anglatadi, — deydi “Surxondaryo suv ta’minoti” AJ Oltinsoy tumani bo‘limi boshlig‘i Murod Abdullayev.

Oltinsoy tumanidagi Tog‘aymurod, Mingchinor, Bo‘ston, Qumpaykal, Mo‘minqul, Marmin, Jobu, Nurafshon, Ipoq, Chep, Obshir kabi mahallalarda “O‘zsuvta’minot” AJ mablag‘i hisobidan 14 kilometr yangi tarmoq tortildi. Qaysi xonadonga kirmang, unda musaffo, zilol suv oqib turganiga guvoh bo‘lasiz.

Joriy yilning o‘tgan davrida Surxondaryo viloyatida jami 285 kilometr suv tarmoqlari yotqizildi. Shuningdek, 40,5 kilometr tarmoq, 131 ta nasos profilaktik ko‘rikdan o‘tkazilib, joriy va mukammal ta’mirlandi. Mazkur ishlar natijasida 94 ta mahalladagi 33,9 ming kishi ilk bor markazlashgan ichimlik suvdan bahramand bo‘ldi. 218 ming yurtdoshimizning suv ta’minoti yaxshilandi. Shu tarzda voha ahlining musaffo suv bilan ta’minlanganlik darajasi 66,5 foizga yetkazildi.

Yilning o‘tgan davrida davlat dasturlari hisobidan 650,6 milliard so‘m moliyalashtirilib, 299,2 milliardi o‘zlashtirilgan. 112,2 kilometr ichimlik suv tarmog‘i tortilgan, 4 ta suv inshooti qurilgan. Shuningdek, mahalliy byudjet, aksiyadorlik jamiyati, homiylik va aholi mablag‘i hisobidan 120,3 kilometr ichimlik suv tarmog‘i yotqizilgan.

Joriy yil yakuniga qadar 90 kilometr ichimlik va oqova suv quvuri, 5 ta inshoot qurilishi ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, ko‘chalarga qo‘yilgan kichik suv saqlash moslamalaridan foydalanuvchi 8250 iste’molchining xonadonigacha suv tarmog‘i olib kiriladi. 7400 xonadonga esa suv hisoblash uskunasi o‘rnatib beriladi. Natijada viloyat aholisining ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasi 70 foizga yetkaziladi.

— To‘palang suv omboridan vohaliklarni ichimlik suv bilan ta’minlash loyihasi to‘liq amalga oshirilgach, viloyatda ichimlik suv taqchilligi muammosi batamom bartaraf etiladi. Surxondaryoliklar salomatligini asrash, hayot farovonligini oshirishda muhim bo‘lgan ushbu ezgu tashabbus yaqin yillarda o‘zining katta natijasini beradi, — deydi “Surxondaryo suv ta’minoti” AJ axborot xizmati rahbari O‘roqali Diyorov. — Vohada suv iste’molchilarini sifatli obihayot bilan ta’minlashga qaratilgan bu ishlar 94 ta mahalladagi 33 ming 965 kishining ilk bor markazlashgan ichimlik suvga ehtiyojini qoplab, 59 ta mahalladagi 25 ming 192 iste’molchining ichimlik suv ta’minotini yaxshiladi. Viloyat aholisini markazlashgan ichimlik suv bilan ta’minlash darajasi yil boshidagi 65,3 foizdan 66,5 foizga yetdi. Yil oxirigacha To‘palang daryosi suvi bilan ta’minlash megaloyihasining foydalanishga topshirilishi aholining toza ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasini yanada oshiradi.

To‘palang daryosidagi suv ombori 1986-yilda ishga tushirilgan edi. U sug‘orish bilan birga gidroenergetika maqsadlariga ham xizmat qiladi. Suv omborining quyi qismida bunyod etilayotgan GESlar quvvati viloyatning shimolidan janubiy hududlariga qadar elektr energiyasi yetkazadi.

Oxirgi yillarda yurtimizda 630 million dollar investitsiya hisobiga quvvati 400 megavattdan ortiq yangi GESlar barpo etilib, ularning umumiy quvvati 2,2 gigavattga yetkazildi. Shu kunlarda Sariosiyo tumanida ham davlatimiz rahbari 2023-yilda tamal toshini qo‘ygan “Zarchob-3” stansiyasi ishga tushirildi. Yaqin paytga qadar To‘palang suv ombori suvi maxsus bosim ostida “To‘palang” GESga yo‘naltirilgan edi. Bu inshootda 2023-yili yangi agregatlar ishga tushishi bilan mavjud quvvat qariyb 7,2 barobar oshdi.

Gidroelektr stansiyalar — kunlik energiyani barqaror ta’minlashda samarali vosita. Ularda ishlab chiqariladigan elektr tannarxi ham boshqa manbalarnikiga nisbatan arzon. Xitoyning “DongFang” kompaniyasi investitsiyasi asosida qurilgan ushbu stansiyaning umumiy qiymati 25,4 million dollarni tashkil etadi. Yangi quvvat ishga tushishi natijasida bitta kaskadda joylashgan 4 ta GESda 276 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarilishiga erishildi. Ekologik toza energiya hosil qiluvchi quvvatlarni tashkil etish — korxonalar va aholining elektr energiyasiga ehtiyojini qoplashi shubhasiz. Shu bois, nafaqat suv ta’minoti va energetika, balki boshqa sohalarda yuz berayotgan o‘zgarishlar surxondaryoliklarning quvonchiga sabab bo‘lyapti.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

www.yuz.uz — yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz

O‘zlikni anglash yo‘lida

Milliy kontentni ko‘paytirish, sifatini yaxshilash haqida keyingi paytda ko‘p gapirilyapti. Davlatimiz rahbari aksariyat chiqishlarida bu masalaga e’tibor qaratadi. Bu yaxshi. Biroq shu masalada to‘g‘ri anglamga kelishning o‘zi ham alohida mavzu. Mazkur tushuncha mohiyatini kimdir milliy liboslar aks etgan lavhalarda, kimdir o‘zbek tilida tayyorlangan materiallarda, yana kimdir milliy taomlarda deb bilyapti. Ayrim san’atkorlar milliylikni ulug‘layapman deb yerga urayotgani ham asl mohiyatni bilmaslikdan kelib chiqyapti. Milliy kontent deyishga arzigulik ish qilayotganlar esa xalqning madaniyati, urf-odati, an’analari, tili, tarixi va qadriyatlarini aks ettiradigan materiallargina milliy kontent bo‘la oladi, degan fikrda. Ziyoli qatlam vakillari ham bu turdagi kontentlar milliy o‘zlikni saqlash, yosh avlodga singdirish, dunyoga o‘zligimiz bilan tanilishimizda muhim ahamiyatga egaligini e’tirof etadi.

IJTIMOIY TARMOQLAR KUCHI

KONTENTLAR SALOHIYATI BILAN O‘LCHANADI

Aslida-chi, milliy kontent o‘zi qanaqa bo‘lishi kerak? Xo‘p, uni yarata olyapmiz ham deylik. Biz milliy kontent deyayotgan chiqishlar nima uchun ommalashmayapti? Ular ham ko‘pning e’tiboriga tushishi, muhokamalar maydonida bo‘lishi, boshqa kontentlar oqimiga qo‘shilib ketishi uchun qanday yo‘l tutsak to‘g‘ri bo‘ladi?

Ochiq aytish kerak, bu savollarga aniq yechim yo‘q. Biroq qarashlar, takliflardan kelib chiqib muayyan maqsad sari borish mumkin. Shu ma’noda, milliy kontent yaratish jarayonida qatnashayotgan ijodkorlar, ziyolilar va xolis kuzatuvchilarning bir guruhi bilan suhbatlashdik. O‘zaro fikr almashildi, takliflar bildirildi.

MILLAT SIFATIDA YASHAB QOLISHNING MUHIM SHARTLARIDAN BIRI

Vohid LUQMONOV,
“Madaniyat va ma’rifat” telekanali rahbari:

— Darhaqiqat, so‘nggi yillarda “milliy kontent” degan jumla urfga kirgan istilohlardan biriga aylandi. Uni yaratish istagida jiddu jahd qilayotganlar ko‘pligini aytmaysizmi? Mamlakatimizda ikki mingdan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritayotgan, ularning 700 dan oshig‘ini internet nashrlari tashkil etayotgan, ushbu ommaviy axborot vositalarining asosiy qismi o‘z

mediamahsulotlarini, zamonaviyroq aytganda, mediakontentini o‘zbek tilida tayyorlayotgan bo‘lsa, unda milliy kontent yaratish ehtiyoji qayerdan paydo bo‘ldi? O‘zbek tilli ommaviy axborot vositalarining siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy, ta’limga oid yoki ko‘ngilochar mavzulardagi kontentlari milliy emasmi?

Prezidentimiz 2024-yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilab bergan milliy kontent yaratish vazifasi va bugun biz tushunayotgan milliy kontent o‘rtasida qanday farq bor? Milliy kontent nima, u qanday bo‘lishi kerak?

Davlatimiz rahbari “milliy kontent” deganda O‘zbekistonning milliy manfaatlarini ko‘zlagan holda dunyo va mamlakat ichidagi voqea-hodisalarga sof milliy nuqtayi nazardan baho bera oladigan axborot maydonini nazarda tutgani shubhasiz. Ya’ni milliy kontent millatning madaniyati, urf-odatlari, tili, tarixi, dini, qadriyatlari va ma’naviy merosini aks ettiruvchi mediamakondir.

Sho‘rolarning “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” degan mafkuraviy shiori oqibatida milliy san’atimiz, adabiyotimizni boy berishimizga bir bahya qoldi. Biroq hanuz shaklga zo‘r berib, mazmunni unutib qo‘yayotgandekmiz. Yo‘qsa, davlatimiz rahbari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrdagi yig‘ilishida “O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”, demas edi.

> **“ Milliy kontent yaratish bugungi global dunyoda millat sifatida yashab qolishning eng muhim shartlaridan biridir. Afsuski, hozir biz “milliy” deb atayotgan juda ko‘plab mediamahsulotlar ijtimoiy tarmoqlarda bemaza qovunning urug‘idek ko‘payib ketgan. Bemaza videomateriallar, telekanallarning efir vaqtini to‘ldirayotgan teleserial va telenovellalarning aytilishigina milliy, xolos.**

Mana, men ham misolni aynan shu nuqtadan keltiryapman. Negadir biz “milliy kontent” deganda asosan, badiiy filmlar, teleserial va telenovellalarni tushunyapmiz. Aslida, chuqur ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tahlillarga ixtisoslashgan axborot maydonlariga ehtiyoj katta. Bugun ijtimoiy tarmoqlarga joylanayotgan iqtisodiy kontentlar yo‘q emas. Lekin kam. Aksariyat nashrlar jahonda ro‘y beradigan siyosiy jarayonlar haqida global mediamakondagi axborotni tarqatish bilangina shug‘ullanmoqda. Vaholanki, milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan tahlil qilingan siyosiy axborotlarga talab oshib bormoqda.

Qisqasi, milliy axborot makonida yagona — milliy manfaatlarimizga xizmat qiladigan axborot muhitini yaratish vaqti allaqachon kelgan.

ISHNI ANIMATSIYADAN BOSHLASAK...

Shohrux NORQULOV,
rejissyor:

— Bugun “milliy kontent” tushunchasi har xil tushunilyapti. Ochig‘ini aytish kerak, charchagan kishi yengilroq, oson hazm bo‘ladigan, shov-shuvli kontentlarni ko‘rgisi keladi. Hozir yoshlar orasida eng ommalashgan tarmoq — instagramni milliy kontent bilan to‘ldirishda, avvalo, qisqalikka e’tibor berilishi lozim. Yoshlarni mahliyo etayotgan lavhalardan o‘zish uchun yangilik qilishimiz zarur.

Faoliyatimdan kelib chiqib gapirsam, milliy kontentni faqat lahzalik lavhalardagina emas, kino, veb seriallarda ham aks ettirish mumkin deb bilaman. Chunki kinoda, veb serialda erkinroq bo‘lasiz. Faqat bu masala yechimi mablag‘ga borib taqaladi. Hozir o‘smirlarga mos filmlar deyarli yo‘q. Shunday ekan, yoshlarimiz boshqa kontentlarni qidiradi. O‘ziga kerakli jihatlarni yot manbalardan oladi. Demak, bu yo‘nalishda ijod qilganlar bugun o‘z auditoriyasini topa oladi. Menga ham ko‘p mavzularda takliflar bo‘ladi. Qay biri og‘riqli, dolzarb bo‘lsa, o‘shaning ustida tezkor ishlashga harakat qilaman. Masalan, to‘y mavzusi. Bu borada qiynalmay milliy kontent yaratish mumkin. Chunki real voqelik. Hammaning e’tiborini tortadigan mavzu. Shuning uchun ham to‘y haqidagi kontentlarimiz ko‘p ko‘riladi.

Yuqorida o‘smirlar mavzusini tilga oldik. Biroq bundan ham muhim jihat — bolalar mavzusi. Yillar davomida yurtimizda animatsiya sohasi oqsab keladi. Aslida, milliy kontentni tarbiyalaydigan vosita — multfilm. Bog‘cha yoshidagi har qaysi bolada multfilmga tashnalik bo‘ladi. Ana shu tashnalikni qondiradigan milliy kontent bo‘lmasa, endi esini taniyotgan bolalar ongini boshqa multfilmlar egallab oladi.

Bolaligimizda ikkitagina telekanal bo‘lar edi. Ularda namoyish etilgan eski mult-filmlarning hammasini ko‘rganmiz. “Senimi, shoshmay tur”, “Tom va Jerri” kabi animatsion filmlar juda yaxshi qabul qilingan. Bugungi zamonaviy multfilmlarda esa ustalik bilan o‘sha

davlatlarning milliyligi singdirib ketilyapti. Bu bir qarashda sezilmaydi. Masalan, “Masha va ayiq” multfilmida xalqning urf-odati, uy qurish uslubi, milliy kiyimlari shundoq aks etib turadi. U orqali butun dunyo o‘sha madaniyat bilan tanishyapti. Biz ham shu yo‘ldan borishimiz kerak. Milliylikni multfilm, kinolarga singdirib yuborish zarur. Animatsiyaga e’tiborni kuchaytirsak, 5-7 yoshli bolalar ongini toza g‘oya bilan egallaymiz. Ular 10 yillardan keyin davlatga kerakli, biz istayotgan kadrlar bo‘lib yetishadi. Yaxshiyam Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tuzildi. Markaz mana shu jihatlarga e’tibor qaratsa, samaradorlik tez ko‘rinadi.

Bugun ijobiy ta’sirga ega kontentlar ishlayotgan bloger, vaynerlarimiz ham bor. To‘g‘ri, ular ochiq va erkin ishlaydi. Biroq milliy kontent borasida faollikni oshirish kerak. Obunachilar har kuni yangi kontent kutadi. Bugun haftada bir yoki ikki marta chiqish bilan auditoriyani kengaytirib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, biz ham faollikni oshirish ustida izlanyapmiz. Jamoa-doshlarim bilan yangi-yangi g‘oyalar ustida bosh qotiramiz. Zero, ko‘pchilik bilan fikr almashilganda g‘oyalar xilma-xilligi ortadi. Kimdir yoshlarning ko‘ngliga yo‘l topayotgan vaynerlarni hamkorlikka chaqirish kerakligi, ular orqali keng sonli obunachilar ichiga kirib borish osonroq bo‘lishini aytadi.

Yana kimdir tegishli idora va tashkilotlarga qandaydir talablar qo‘yilishi, masalan, o‘yinlarda, sun’iy intellekt yordamida milliy kontentni jonlantirib berish bolalarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Boshqasi milliy kontent hamma joyda aks etishi, hatto taomda ham sezilishi kerakligi haqida gapiradi. Shulardan kelib chiqqan holda mavzular tanlaymiz. Qahramonlarni shakllantirishda imkon qadar professional va taniqlilarni jalb etamiz. Chunki tomoshabin uchun bu juda ahamiyatli.

TAQLIDDAN CHEKINISH KERAK

Bobur MANSUROV,
bloger:

— Milliy kontent deganda milliyligimiz, qadriyatlarimizni targ‘ib qilish, ayniqsa, unutilib ketayotgan qadriyatlarni tiklashni tushunaman. Milliy kontent tayyorlamoqchi bo‘lganlar, avvalo, bu borada tajriba, mahorat orttirishi kerak. Zamon nimani talab qilyapti, nima ommalashyapti, hammasini chuqur o‘rganmaguncha kontent sifatli bo‘lmaydi. Ijod namunalarimizda xalqqa ham tanish holatlar bo‘lsagina keng tarqaladi. Agar milliy ruhdagi, tarbiyaviy kontentlar to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat uslubida tayyorlansa, tomoshabin ko‘rgisi kelmaydi. Tomoshabinni nima bilandir ushlab qolish kerak. Buning uchun xalqning xarakterini yaxshi o‘rganish zarur. Bu borada kimnidir timsol qilib olish qo‘l keladi. Ko‘p-lab milliy kontentlarni ko‘raman, to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilingan bo‘ladi. Bu kontent tayyorlashning eng oson yo‘li. Bu yo‘ldan yurmaslik kerak. Bugungi obunachilar reallikni yoqtiradi. Havoyi narsalar ularni zeriktirib qo‘yadi. Bu yo‘l nafaqat milliy kontentda, balki kinoda ham, musiqa va qo‘shiqda ham o‘zini oqlamaydi. Aniqroq aytsak, xayolotga berilish tomoshabinni yo‘qotishga olib keladi. Shuning uchun hayotiy voqealarga tayanib ijod qilinsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Aslida, avvallari ham shunga e’tibor berilgan. Masalan, “Mahallada duv-duv gap”, “Suyunchi” filmlarini olaylik. Haligicha tomoshabinni o‘ziga tortadi, hech qachon bezdirmaydi. Chunki odam o‘zining qadriyatini ulug‘laydi va buni farzandiga ham o‘rgatadi.

Biz ham shu paytgacha ko‘plab milliy kontentlar ishladik. Kuzatuvchilarimiz nimadandir ibrat, tarbiya olsa, urf-odatlarimiz tiklanishiga oz bo‘lsa-da, hissa qo‘sha olsak xursand bo‘lamiz. Auditoriya ko‘lamiga kelsak, ko‘p sonli obunachilarni yig‘ish oson emas. Mavzularimizni asosan xalqning o‘zidan olganimiz uchun muxlislarimiz ko‘p deb o‘ylayman.

Real voqealar deb gapiryapman-u, misol keltirmabman. Bizni kuzatuvchilar yaxshi biladi: ijodiy jamoamiz bilan birga saylov, giyohvandlikka qarshi kurash, turli firibgarliklar haqida ham kontentlar tayyorlaganmiz. Voqelikka yondashuvda reallikka asoslanganimiz uchun ko‘p ko‘rilgan. Menimcha, shu tarzda yondashilsa, kontentlarda samimiyat bo‘ladi. Faqat kimgadir taqlid qilib emas, yangilik qidirib ishlaganlar muvaffaqiyat qozonadi. Afsuski, bugun kontentlarda taqlid ko‘p. To‘g‘ri, o‘z yo‘li, uslubiga ega blogerlar bor, ularni inkor etib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda milliy kontent yaratayotgan blogerlar, ijodkorlarning eng yaxshilarini, albatta, taqdirlashni taklif qilaman. Zero, raqobat bor joyda o‘sish bo‘ladi. “Eng yaxshi milliy kontent”, “Eng yaxshi yondashuv” kabi nominatsiyalar ijodkorlarni ruhlantiradi, ijodiy quvvat beradi. Bunday tanlovlarni ko‘paytirish kerak. Haqiqiy milliy kontent egalari namuna sifatida rag‘batlantirib turilsa, albatta, ular safi kengayadi.

MILLIY LIBOS KIYGAN BILAN MILLIY KONTENT BO‘LIB QOLMAYDI

Beruniy ALIMOV,
“Yangi media ta’lim markazi” NNT direktori, filologiya fanlari doktori:

— Haqiqatan, bu juda jiddiy masala. Aksariyat o‘quvchilar ijtimoiy tarmoqlardan axborot olyapti. Hatto yetakchi OAV ham aynan ijtimoiy tarmoq platformalari orqali auditoriyasi bilan gaplashyapti. Chunki o‘quvchi, tomoshabin qayerda bo‘lsa, ana shu platformadan unumli foydalanish kerak.

Umumiy kontent yaratish ma’nosida qarasak, albatta, oddiy o‘quvchi juda ko‘p. Ular professional emas. Shu nuqtayi nazardan ular orasida milliy kontentning asl mohiyati, mazmunini bilmaydiganlar ancha-muncha. Biroq shunday kontentlar tayyorlashimiz kerakki, mohiyat, mazmun aniq anglashilib tursin. Ya’ni oddiy o‘quvchi ham o‘sha kontent uchun yurakdan mehnat qilinganini payqasin. Buning uchun ijtimoiy tarmoq faollari, blogerlar, frilanserlar uchun qaysidir ma’noda maxsus kurslar, o‘quv seminarlari, treninglar tashkil etilishini taklif qilgan bo‘lardim.

Milliy kontent xalqimizga qiziq va foydali bo‘lishi kerak. Milliy libos kiygan bilan milliy kontent bo‘lib qolmaydi. Professional nuqtayi nazardan qanday axborot kerakligini aniqlab turib ish ko‘rsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Faqat shov-shuv ko‘tarish jurnalistikaning vazifasi emas. Bugun, afsuski, shunga og‘ib

ketyapmiz. Ko‘proq e’tibor qozonish, auditoriya, reyting yig‘ish jurnalistikaning sifatiga putur yetkazyapti. Har bir ijodkor, jurnalist faoliyati davomida chinakam milliy kontent yaratishga hissa qo‘shishi kerak. Keyingi paytda bu borada intilishlar, izlanishlar jadallashdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusidan keyin milliy kontent yaratishga alohida e’tibor berilyapti. Biroq hali qilinadigan ishlar juda ko‘p. Shu ma’noda, ko‘proq o‘qib-o‘rganib, ijod qilishimiz kerak. Ana shunda xalqimiz, millatimiz manfaati uchun xizmat qiladigan ajoyib mavzularni olib chiqa bilamiz.

MILLIY KONTENT YARATISH MAVSUMIY TADBIR EMAS

Muhtarama ULUG‘OVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi:

— O‘zbekiston hayotning barcha jabhasida rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga chiqib borayotgani xalqaro miqyosda dalillar bilan e’tirof etilmoqda. Demak, jahonning turli minbarlarida ko‘hna va navqiron diyorimiz ramzi bo‘lgan bayrog‘imiz hilpirab turgani kabi jahon mediamaydonida hayotimiz ko‘zgusi bo‘lgan o‘zbek mediasi vakillarining so‘zi, ovozi milliy qadriyatlarimiz, xalq donoligi, urf-odatlarimiz, tilimizning keng imkoniyatiyu jozibadorligi, tabiat va turmush uyg‘unligining zamon bilan hamnafas ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘lishi kerak.

To‘g‘ri, Alisher Navoiy hazratlari ayt-ganidek, xalqaro so‘z maydoni ustalari bilan yuzma-yuz turmoq oson emas. Shu sababli oldimizda turgan o‘ta muhim jihatni unutmaslik kerak: biz, birinchi navbatda, boshqalar bilan bellashish, bahslashish uchun emas, o‘z xalqimiz, ayniqsa, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga necha asrlardan buyon ajdodlarimiz

ilmu urfonda, odamiylikda, san’atu ijodda, hunarmandchilikda dunyo afkor ommasiga ibrat bo‘lishining vositasi — bebaho ma’naviy boyliklarimizni anglatish, ularga muhabbat uyg‘otish va hayot tarziga aylantirish uchun milliy kontentni yaratishimiz kerak. Aks holda, kitoblar xonadonlar javonining bezaklari sifatida qayd etiladigan, milliy liboslarimiz ayrim tadbirlardagina kiyiladigan, xalq qo‘shiqlarimizdan “Alla” bilan “Yor-yor”gina an’anaviy tanlovlarda ijro etiladigan, Samarqand obidalari kabi betakror maqomlarimiz ham bemalol qayta ishlanib zamonaviylashtiriladigan, hatto o‘zbek ayolining pazandalik san’ati ko‘chadan tashib kelinadigan taomlarning bir marta ishlatishga moslashgan idishi kabi qadrsizlik “qutisi”ga tashlanadigan, andishayu hayo, kattaga hurmatu kichikka izzat tezkor zamondan orqada qolish sifatida qabul qilinadigan darajaga yetib, jamiyat qalbi qashshoqlashib boraveradi. Shu sababli, milliy kontent, avvalo, xalqimiz asrlar davomida zarralab to‘plagan, tajribadan o‘tkazgan fazilatli o‘zlik turmush tarzi me’yorlarini kundalik hayotimizda barqaror etishga xizmat qilishi kerak.

O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim “Saodat” jurnalida bosh muharrir bo‘lgan paytlarida bizni xizmat safariga yuborishdan oldin: “Maqola uchun tanlangan qahramon haqida iloji boricha ko‘proq ma’lumot oling. U bilan birga yuring, ishlarini, muomalasini kuzating”, der edi. Onlayn aloqalar bu qadar rivojlanib ketgan bugungi kunda ustozimizning yuqoridagi talabi ahamiyatini chuqurroq ang-layotgandekman. Jurnalist hayotga qanchalar yaqin bo‘lsa, odamlar hayotini nechog‘liq yaqindan va teran o‘rgansa, uning ijodida milliy kontent bo‘yog‘i shunchalar quyuq, ishonarli bo‘ladi. Hozir telefon, ijtimoiy tarmoqlar orqali olingan ma’lumotlarga asoslanib yoziladigan maqolalar, tayyorlanadigan audio va video dasturlar oz emas. Ularning aksariyatidagi milliy mentalitet, qadriyatlar, urf-odatlar bilan bog‘liq mulohazalarni qadoqlangan mahsulot haqida uning qutisi (xaltasi)dagi rasmlarga qiyoslash mumkin: surat bor-u, mohiyat yo‘q.

Milliy kontent yaratish vazifasi dolzarb mavsumiy tadbir emas. Zamon va avlod yangilanaveradi. Biz, jurnalistlar har bir tayyorlayotgan media mahsulotimiz orqali xalqimiz ongiga, qalblarga hayotning barcha jabhalaridagi o‘zligimiz falsafasi, fazilatlarini nur zarralaridek singdirishga, ularning turmushda barqaror bo‘lishiga hissa qo‘shishga doim mas’ulmiz.

Milliy kontent haqida keng jamoatchilik, ziyoli qatlamning turfa fikrlari mubohasa maydoniga chiqyapti. Ular orasida siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori Suhrob Bo‘ronovning “Bugungi axborot maydonida milliy kontent yo‘qligi milliy o‘zlikning yo‘qotilishi sifatida baholanishi shart va lozim. Shu bois, axborot xuruji keng avj olayotgan maydonda nafaqat raqobatbardosh milliy kontentni yaratish va u orqali axborot xavfsizligini ta’minlash zarur, balki uni xorijiy axborot resurslarida ham doimiy aks ettirish vazifasi davrimizning kechiktirib bo‘lmaydigan talabi” degan fikrlari e’tiborni tortadi. Zero, virtual olam — chegarasiz. Yot kontentlarni to‘sib qola olmaymiz. Shunday ekan, yaxshi g‘oya, yoshlarga ta’sirchan usullarni topish zarur. Xorijiy chorlovlarga esa milliy, zamonaviy qarashlarimiz bilan javob beraylik. Ijtimoiy tarmoq — go‘yo ko‘zga ko‘rinmas katta armiya. Qo‘shinlarning kuchi askari, texnikasi bilan o‘lchansa, ijtimoiy tarmoqlar kuchi kontentlar salohiyati bilan o‘lchanadi.

Sahifani “Yangi O‘zbekiston” muxbiri Munojat MO‘MINOVA tayyorladi.

Teatrlar MAVSUMI OCHIQ

TOMOSHABINLARNI ZAMON RUHIGA MOS REPERTUARLAR KUTMOQDA

1914-yili Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasi bilan o‘z pardasini ochgan o‘zbek teatri ikki-uch o‘n yillik ichida har bir xalq g‘ururlansa arzigulik teatr sifatida maydonga chiqdi. O‘zbek teatri jadidchilik harakatining mevasi — ma’rifiy teatr sifatida tug‘ilgan edi. Birinchi o‘zbek ijodiy jamoasi bo‘lmish “Turon” truppasi nizomida teatrning bosh maqsadi “... aholi o‘rtasida sahna ishlari va xayriyaga jiddiy munosabatni rivojlantirish, xalq uchun spektakl ko‘rsatish, unga sog‘lom tomosha berish...”, deb uqtirilgan edi.

Sahna ishini tashkil etgan va uni xalq orasida keng yoygan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy singari atoqli ma’rifatparvarlarning sa’y-harakati bilan bu teatr tez orada xalq madaniy hayotining tarkibiy qismiga aylandi.

Qisqa vaqt ichida o‘ttizga yaqin pyesa yaratildi, aktyorlik va rejissyorlik san’atining tub tamoyillariga asos solindi. Jadid teatri va dramaturgiyasining muhim xususiyati uning oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, uni ma’rifiy tarbiyalash va shu orqali jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg‘onish g‘oyalarini tarannum etishida ko‘ringan edi. Jadidlar yoqqan ma’rifat mash’ali qariyb 1930-yillarga qadar yangi g‘oya va intilishlar bilan teatr hamda dramaturgiyaga kirib kelgan ahli san’at yo‘llarini yoritib turdi.

O‘zbek teatri milliy mahdudlik qobig‘ida o‘ralashib qolmay, o‘z taraqqiyoti yo‘lida jahon teatri tajribasini o‘zlashtirib bordi. O‘zbek aktyorlari 1924-1927-yillari Boku teatr texnikumi va Mannon Uyg‘ur, Cho‘lpon rahbarligida Moskva teatr studiyasida tahsil ko‘rgani ularning kasbiy darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbek teatri tug‘ilganiga o‘n yil to‘lar-to‘lmas Abdurauf Fitratning “Chin sevish”, “Abulfayzxon”, Cho‘lponning “Yorqinoy” kabi asarlari zamonaviy drama estetikasi talablari darajasida bo‘lishi shu izlanishlarning mantiqiy natijalari edi. Musiqali dramadek murakkab sintetik san’at janri paydo bo‘lishi ham o‘zbek xalqining benihoya boy badiiy merosga egaligi va shu merosni zamonaviy teatr tiliga ko‘chira oluvchi sohibi talantlar borligi bilan bog‘liq edi. Dastlab kichik musiqali sahnalar tarzida ko‘ringan bu janr G‘ulom Zafariyning “Halima”, Xurshid inssenirovkasi asosida Bahodir Jamolov rejissyorligida “Layli va Majnun” asarlari yaratilishi bilan o‘zbek teatrida alohida san’at yo‘nalishi tarzida taraqqiy topdi.

Chet elliklar Shekspirning “Hamlet”, “Otello” kabi asarlarining o‘zbek aktyorlari tomonidan yuqori darajada mujassam etilishidan hayratga tushib so‘z ochar ekan, buning asosiy sabablaridan biri bu spektakllarning biror-bir boshqa teatrlar postanovkasiga o‘xshamasligi, ya’ni ularda Shekspir g‘oyalariga mushtarak tarzda o‘zbekona dunyoqarash va badiiy qadriyatlar ifoda etilishida deb bilish mumkin.

Keng ko‘lamda avj olgan shunday ijodiy jarayonlardan so‘ng Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo‘jayev, Sora Eshonto‘rayeva kabi o‘nlab yuqori iqtidorli drama ustalari va Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, Mahmudjon G‘ofurov singari ko‘plab musiqali drama ustalari yetishib chiqishi o‘zbek teatrining boshdanoq jahon teatri tajribalarini ijodiy o‘zlashtirgan holda jadal taraqqiy topishining tabiiy mahsuli ekani o‘z-o‘zidan ayon bo‘ldi.

Bugungi kunda bu jarayonlar davom etyapti. So‘nggi yillarda zamonaviy drama, yosh rejissyorlar ishlanmalari, milliy tarix va ma’naviyatni yorituvchi yangi asarlar sahnada keng o‘rin olmoqda. Shu bilan birga, xorijiy klassik va zamonaviy pyesalarning ijodiy talqinda qo‘yilishi o‘zbek teatrini xalqaro maydonda tanitmoqda. Respublikamizda 40 ga yaqin teatr bor. Yurtdoshlarimiz orasida teatr ixlosmandlari nihoyatda ko‘p deb ayta olmaymiz, lekin har bir teatr o‘z muxlislariga ega. Insonlarga ma’naviy ozuqa, madaniy hordiq va estetik zavq ulashishni maqsad qilgan mo‘jizaviy san’at dargohlari sentyabr oyida birma-bir navbatdagi mavsumlarini ochiq deb e’lon qilmoqda.

Jumladan, 5-sentabr kuni O‘zbek Milliy akademik drama teatrida 111-mavsum ochilishi bo‘lib o‘tdi. Mavsumning ilk pardasi ko‘tarilgach, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Birinchi qaldirg‘och” (“Ma’suma”) asari namoyish etildi.

Spektakl tariximizning “jadidlik” deb atalgan eng murakkab davri, vatanparvar ota-bobolarimizning yurt ozodligi va xalq hurligi yo‘lidagi fidoyiligi, mamlakat ravnaqi borasida amalga oshirgan ibratli ishlari hamda birinchi o‘zbek aktrisasi Ma’suma Qoriyevaning fojiali taqdiri haqida hikoya qiladi. An’anaga ko‘ra, spektakl namoyishidan avval teatr ijodiy jamoasi sahnaga chiqib, tomoshabinlar bilan diydorlashdi.

Kichik sahnasida katta spektakllar qo‘yishga odatlangan “Diydor” teatr-studiyasi 7-sentabr kuni navbatdagi mavsumini ochiq deb e’lon qildi. Aynan mana shu sanada teatr-studiya asoschisi Bahodir Yo‘ldoshev tavallud topgan.

Mavsumning ilk spektakli “Hayvonlar hikoyasi” asari bo‘ldi. Bu tomosha teatr-studiya badiiy rahbari Bobur Yo‘ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan. Unda rejissyorlik talqini, turli monolog va kichik pyesalardan iborat asarning yagona g‘oya atrofida qurilganini, xoreografiya, musiqiy leytmotiv, ssenografiya uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni spektakl teatr-studiya maqomiga mos tarzda yaratilgan.

“Diydor” teatr-studiyasi joriy mavsumdagi repertuarini oldindan e’lon qilmagan. Avvalgi mavsumlarida “Kulgi akademiyasi” (Koki Mitani asari), “O‘t qo‘yuvchilar” (Maks Frish asari), “Zebiniso” (Uyg‘un asari), “Arshin mol-olon” (Uzair Gajibekov asari) spektakllari tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olingan edi.

Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatrining 87-mavsumi ochilishi marosimi taniqli rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlandi. Teatr hovlisida ochiq maydonda o‘tkazilgan tadbirda yillar davomida akademik musiqali teatrda sahnalashtirilgan spektakllardan parchalar ijro etildi. Yangi mavsum 33-yil avval aynan Bahodir Yo‘ldoshev sahnalashtirgan “Nodirabegim” spektakli bilan boshlandi.

Teatrning sentyabr oyi uchun barakali repertuarida nisbatan musiqali komediyalar asosiy o‘rinni egallaydi. Agar siz aynan mana shu teatrda tomosha ko‘rishni xohlasangiz, sizga “Halima” (G‘ulom Zafariy asari), “Qaynona” (Majid Shamxalov asari), “Olifta” (Farhod Musajon asari), “Qobil ila Hobil” (Nafas Shodmonov asari), “Aqldan ozish hech gapmas” (Shukrullo Mahkamov asari), “Otabek va Kumushbibi” (Abdulla Qodiriy asari), “Sovchiga er topildi” (Sagarelli asari), “Zamon Avloniysi” (Qo‘chqor Norqobil asari), “Sarvqomat dilbarim” (Chingiz Aytmatov asari), “Baxshi” (Nafas Shodmonov asari), “Quyoshning omonati” (Hayitmat Rasul asari) kabi spektakllar taklif qilinishi mumkin. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu repertuarda tarixiy, shuningdek, jiddiy mavzudagi dramatik asarlar mavjud.

— Teatrimizda bugungi kunlarda juda iliq va ko‘tarinki ruh hukmron. Ta’tildan qaytishimiz bilan mustaqillik bayrami arafasida ijodkorlarimizdan ikki nafari — Gulasal Rahmonova “Shuhrat” medali, Azizxon Latipov esa “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangani jamoamiz uchun katta sharaf va ilhom manbai bo‘ldi, — deydi Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatri mas’ul xodimi Feruza Xoliqova. — Sentabr oyi teatrimiz hayotida muhim voqealarga boy. 21-27-sentabr kunlari jamoamiz Qozog‘istonning Oqtov shahrida o‘tkaziladigan nufuzli xalqaro festivalda “Qobil ila Hobil” spektakli bilan ishtirok etadi. Bu biz uchun nafaqat tajriba almashish, balki yurtimiz teatrining ijodiy salohiyatini xalqaro sahnada namoyish etish imkoniyati hamdir.

Prezidentimizning 2023-yil 25-dekabrdagi “Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan 2024-yilda Madaniyat vazirligi tizimidagi davlat teatrlari jamoalarining hududlarga gastrol safarlarini tashkil etish reja-jadvaliga muvofiq, 4-sentabr sanasidan Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatrining ustoz san’atkorlari Odina G‘oziyeva, Gulchehra Nosirova, Tohir Rahimov hamda Otabek Haqberdiyev, Muzaffar Hamidov, Bozorbek Xolmo‘minov, Farhod Qurbonov teatr ma’muri Nigora Sherjonova boshchiligida turli viloyat va tumanlarda bo‘lib, aholi bilan ijodiy uchrashuv va konsert dasturlari o‘tkazmoqda. Xullas, barcha teatrlar ijodiy jamoalari qizg‘in tayyorgarliklar bilan band. Ayniqsa, mustaqilligimiz bayrami har galgidek ijodkorlarimizga yangi ruh va yangi ilhom bag‘ishladi. Oldimizdagi asosiy maqsad — yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz ruhiyatiga munosib sahna asarlarini yaratish. Shu bois, yangi mavsumda milliy dramaturgiya namunalarini sahnalashtirish, yurtdoshlarimizning ma’naviy dunyosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan spektakllar bilan chiqish hamda yurtimizni turli hududlarida gastrol tadbirlarini o‘tkazish rejalarimizdan o‘rin olgan.

Teatr odami Georgiy Tovstonogov aytmoqchi, sahna uzunasiga o‘ttiz, eniga yigirma qadam, balandligi pardasi barobar uncha katta bo‘lmagan joy. Biroq bu mikromakonning pardalari ochilgach, unga o‘tmish ham, bugun ham, kelajak ham sig‘adi. Demak, teatr san’ati yo‘lida xizmat qilishga bel bog‘lagan har bir inson zimmasidagi sharafli vazifani shu yurtning farzandi sifatida, tomoshabin, teatr jamoasi, pyesa muallifi, sahnadagi hamrohi va, nihoyat, o‘z vijdoni oldidagi mas’uliyatini chuqur anglagan holda ado etishi shart. Davlatimiz esa bunday ezgu mehnatni qo‘llab-quvvatlashda davom etadi, teatr ravnaqi uchun sa’y-harakatlar to‘xtamaydi. Zero, teatr xalqning ma’naviy qiyofasi, millatning qalbi, tirik ruhidir.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Tabiat va biz

TARIX TILSIMLARI IZIDAN

Har gal Taxtaqoracha dovoni orqali o‘tar ekanman, musaffo havosi, totli suvi, so‘lim tabiati betakror makon — Omonqo‘ton o‘ziga jalb etadi. Shu yerdagi har bir toshda o‘tmishning izi bor. Bir paytlar Aleksandr Makedonskiyning askarlari shu yerda nafas rostlagan. Amir Temurning zafarli qadamlari toshlar sathida muhrlanib qolgan. Ushbu manzilda sirli g‘or, daxlsiz tabiat manzaralari va boshqa ajoyibotlar hanuz saqlangan. Shularning barchasi haqida yozish uchun o‘sha maskanga oshiqdim.

Sayohatdan oldin “Omonqo‘ton” milliy tabiat bog‘i mutasaddilariga murojaat qildim. Ular samimiy qarshi olib, yo‘lboshchilikka rozi bo‘ldi. Idora yonida yelkamga maxsus sumka ortmoqlab, sport kiyimida xuddi butun tog‘ni piyoda zabt etishga shaylangandek turgan edim, milliy bog‘ direktori Azamat Amrullayev “Bu yerlarda piyoda kezish oson emas. Hududimiz qariyb 1,5 ming gektar. Siz ko‘rmoqchi bo‘lgan manzillar qalin o‘rmon va toshli soylar ortida yashiringan”, deb meni maxsus mashinasida aylanishga taklif etdi.

Katta mashina notekis, ikki tomoni jarlik bo‘lgan toshli yo‘llarda shiddat bilan ildamlab harakatlanadi. Xarsanglar ustidan o‘tayotganimizda mashina chayqalib-chayqalib, muvozanatini yo‘qotayotgandek tuyuladi. Yonimdagi tutqichga mahkam yopishib atrofni kuzataman. “Piyoda ketsakmikan, biror jarlikka ag‘darilib ketmaylik-da ishqilib”, degan o‘y xayolimdan o‘tadi...

Nihoyat keng va tekis yo‘lga chiqib oldik. Yo‘ldoshim shu zahotiyoq qiziqarli suhbatni boshlab yubordi: “Avvaldan jozibasi o‘zgacha ushbu manzilda Aleksandr Makedonskiy va qo‘shini to‘xtagan. Bu tabiatga Amir Temur mahliyo bo‘lgan. Keyinchalik 1 million 300 ming tup nihol ekiladi. Shu zaylda bu yerda betakror tabiiy muhit, katta o‘rmon barpo etilgan”.

Yo‘l-yo‘lakay musaffo havosi bilan hushni oladigan, qaraganda do‘ppingiz tushib ketadigan darajada baland, yam-yashil qarag‘ayzor bag‘riga yetib keldik. Bu yerda ko‘kka bo‘y cho‘zgan qarag‘aylar chayqalib, xushbo‘y ifor taratib turibdi.

— Men sizga aytgan, bir paytlar ekilgan Qrim qarag‘aylari aynan mana shular, — deydi Azamat Amrullayev. — Bularning har biri 147 yildan beri bu zaminga musaffo havo taratib turibdi. Qrim qarag‘ayi nafaqat chiroyli, balki kislorodga boy, hayotbaxsh daraxtdir.

Shundan so‘ng ilonizi so‘qmoqdan yurib, birdan toshli eski yo‘lga chiqib qoldik. Bu Taxtaqoracha dovonining eski yo‘li ekan. O‘tmishda hayot qaynagan, hozir sukunatga cho‘mgan yo‘l 1970-yilgacha serqatnov bo‘lgan. U qadimgi bo‘lsa-da, toshlar tekis terilgan, ayniqsa, chetidagi xavfsizlik to‘siqlari mustahkam o‘rnashib turibdi. Vaqtida ot-arava, keyinchalik ilk avtoulovlarning uzog‘ini yaqin qilgan bu yo‘l endi olis o‘tmish hikoyasi.

Sal nariroqda yovvoyi olchalarning gilamdek to‘kilganiga ko‘zim tushdi.

— Nega bular terib olinmaydi, rosa to‘kilibdi-ku, — deya savol beraman hamrohimga.

Ma’lum bo‘lishicha, milliy bog‘ hududidagi barcha meva va rezavorlar shu joyda yashovchi hayvon va qushlarning rizqi bo‘lib, bu yerdan hech narsa olinmas ekan.

— Meva-chevaga mutlaqo tegmaymiz. Aksincha, qish kunlari qushlarga don, hayvonlarga yem, ozuqa qo‘yib ketamiz, — dedi bog‘ xodimlari.

Bog‘ hududidagi ko‘plab daraxtlarda qushlarga mo‘jaz inlar qurilgan. Bu saxovatga javoban qushlar ham borini berib sayrar, ohanglar, qarag‘ay va boshqa o‘simliklardan taralayotgan yoqimli ifor bilan qo‘shilib, o‘zgacha shukuh bag‘ishlardi. Ertaklardagidek bu manzildan hech ketgingiz kelmaydi.

— Endi milliy bog‘imizdagi asosiy manzilga — Omonqo‘ton g‘origa boramiz, — deydi hamrohim xayolotimga chek qo‘yib.

G‘orlar... Yoshligimizda eshitgan va o‘qigan ertaklarimizda allaqanday maxluqlar makon qurgan, hisobsiz xazina yashirilgan, sirli, tilsimli, ajoyib bir dunyodek tuyulgan. Chindan ham g‘orlar sukunat va zulmat hukm surgan, hali qanchadan-qancha sirlarni bag‘rida pinhon saqlayotgan ajoyib olam.

Milliy tabiat bog‘i hududida joylashgan Omonqo‘ton g‘orini 1947-yilda Samarqand davlat universiteti arxeologiya kafedrasi professori David Lev aniqlagan va qazishma ishlarini olib borgan. Arxeologik qazishma va tadqiqotlar natijasida g‘orda o‘rta paleolit davriga oid odam, turli jonzot hamda hayvonlarning 16 ming dona suyagi, gulxan, o‘choqlar izlari, ov va ish qurollari topilgan.

G‘orga yaqinlashib, ichkariga shoshib ildamlayotgan edim, sherigim “shoshilmang”, deya ogohlantirdi. Bir zum to‘xtab, savol nazari bilan qaradim.

— Ichkarida biror jonzot yoki zaharli ilonlar bo‘lishi mumkin. Shoshilmay, ehtiyotkorlik bilan kiramiz, — dedi u.

Ilk daqiqalarda ko‘zimiz zulmatga o‘rganmay turib, harakatimiz ancha ehtiyotkorona bo‘ldi. Bir muddatdan so‘ng telefon chirog‘i yorug‘ida devordagi tosh shakllar namoyon bo‘la boshladi. Shiftdan osilib tushgan sumalaksimon toshlar — stalaktitlar, pastdan o‘sayotgan tosh konuslar — stalagmitlar g‘or ichida hayratlanarli simmetriya paydo qilgan. Ular orasida ba’zilari birlashib, qator-qator ustunlar hosil etgan. G‘orda tabiatning o‘zi go‘yo qasr yasagandek: shohona, mukammal, lol qolarli.

— Bu yerdagi toshlar har yili o‘rtacha 1 millimetr o‘sadi. Ba’zi stalaktitlar 10-15 ming yillik, — dedi Azamat aka ovozini pasaytirib.

Bir burchakda to‘xtadik. Bu yerda suv tomchilab turardi. Shu joy “Tilsimli tomchi” deb atalar ekan. Har tomchi go‘yo tarix yoshlarini sanab, g‘orga yangi naqsh qo‘shayotgandek. Aytishlaricha, g‘orning umumiy uzunligi 82 metr bo‘lib, ichkariga 10 metr kirilganda balandligi qariyb 4 kilometrli keng joy bor ekan. Ichkariga kirganimizda g‘or supa va bitta xonaga bo‘linganini ko‘rdik. Nam va salqin. Devorlar juda qadimiy, naqshga o‘xshagan chiziqlar va suv chiqadigan tirqishlar bilinib turibdi.

Azamat akaning so‘zlariga ko‘ra, g‘or ichkarisidagi yo‘lak keyingi yillarda qisqarib bormoqda. Ammo undan o‘tgandan keyin 25-30 metr yana g‘orning oxirigacha keng joy bor ekan.

Keyingi manzilimiz Omonqo‘ton bulog‘i bo‘ldi. Bu yerga yetib kelganimizda yo‘l charchog‘i sezilgan, sal tashnalik bor edi. Ammo buloq yonidagi osoyishtalik, suvning jilvalanib oqishi bizga go‘yo ochiq tabiatning mehmondo‘stligiday tuyuldi. Bu suvdan avval ham ko‘p ichgan edim, ammo har safar uning ta’mi ko‘ngilda yangi ishtiyoq uyg‘otadi. Buloqning suvi shunchaki totli emas, balki u tog‘ bag‘ridan oqayotgan shifo, inson vujudiga singib boruvchi musaffolik manbai. Uning har qatrasida tabiatning cheksiz sofligi, tog‘larning kuchi va shu zaminning asrlar davomida to‘plagan quvvati mujassam. Mahalliy aholining aytishicha, bu suv organizmni yashartirish xususiyatiga ega.

Albatta, shu o‘rinda milliy bog‘ hududidagi hayratlanarli o‘simlik va hayvonot dunyosiga alohida to‘xtalmasak bo‘lmaydi. Bu yer nafaqat go‘zal manzaralar, balki bebaho biologik boyliklar maskani. Sayohatimiz boshidayoq boshimiz uzra parvoz qilgan lochin va burgutlar diqqatimizni tortgandi. Ularni suratga tushirishga harchand urinmay, chaqmoqdek tez harakatlanib, shiddat bilan qanot qoqib, ko‘z ochib yumguncha g‘oyib bo‘lardi.

— “Omonqo‘ton” milliy tabiat bog‘i Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-martdagi tegishli qarori asosida tashkil etilgan, —deydi Azamat Amrullayev. — Bundan asosiy maqsad tabiatni asrab-avaylash, o‘rmon va tog‘oldi hududlardagi yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan o‘simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish va rivojlantirishdan iborat. Hududning 1000 gektari qo‘riqxona, 400 gektari rekreatsion va 100 gektari xo‘jalik yuritishga mo‘ljallangan maydon. Bog‘da 1300 turdan ziyod noyob o‘simlik va daraxtlar hamda 120 turdan ortiq hayvon va jonzot yashaydi.

Omonqo‘tondan qaytar ekanman, qalban bir necha asrni bosib o‘tgandek tabiat, tarix va inson o‘rtasidagi bog‘liqlikni his etdim. Bu maskanning har bir burchida so‘ngsiz hikoyalar, har bir nafasida — hayot, har bir tovushida — hikmat, har bir manzarasida — o‘tmish, bugun va kelajakni bog‘lab turuvchi rishtalarni ko‘rgandek bo‘ldim.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
34830 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munojat Mo‘minova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 23:40

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05